- Никитина, М.И. 1982. *Древняя корейская поэзия в связи с ритуалом и мифом*. Москва: Наука.
- Пропп, Б.Я. 1969. *Морфология сказки*. Издание 2-е. Москва: Наука.
- Раззаков, Х., Мирзаев, Т., Собиров, О., Имомов, К. 1980. *Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Стеблева, И. В. 1976. *Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период*. Москва: Наука.
- Васеловский, А.Н. 1940. *Историческая поэма*. Москва: Художественная литература.
- Зариф, Ходи. 1971. “Кунтуғмиш” достони ҳақида”. *Эргаш шоир ва унинг дostonчиликдаги ўрни*. Тадқиқотлар. 2-китоб. Тошкент: Фан.
- Чистов, К.В. 2005. “Фольклор. Текст. Традиция”. Москва: ОГИ.

Bokijon Tukhliev

(Tashkent, Uzbekistan)
bokijontukhliev@inbox.ru

Motives of Turkic Folklore in “Kutadgu Bilig”

Abstract

“Kutadgu bilig” is one of the most ancient monuments of Turkic written literature. However, talking about its importance only for the interests of the Turkic peoples would be one-sided. Such works belong to all mankind. So such works’ importance is universal.

In 11th century, Turkic literature, including “Kutadgu bilig”, emerged in extremely complex historical, economic, political and cultural conditions. During this period, the ancient beliefs of the Turkic peoples, as well as the traditions of the ancient Turkic script, as well as the Islamic culture, which came under the influence of Persian-Tajik literature, intersected, and the traditions of folklore’s reputation was also strong. Therefore, in the work there are sometimes strong and sometimes imperceptible traces of several different traditions. In “Kutadgu bilig” the most important features of a great literature, folklore, which has centuries-old traditions, are reflected as a whole. Naturally, such a situation cannot be a coincidence. Indeed, many writers who lived and worked before Yusuf Has Hajib must have produced many of the works they created. The importance of the same points motivates us to do this.

Key words: *Kutadgu bilig, Yusuf Has Hajib, folklore, motive, tradition, Turkic literature, influence.*

About the authors: *Boqijon To‘xliyev* – Doctor of Sciences in Philology, professor of Tashkent State University of Oriental Studies.

Recommended citation: Tukhliev, Bokijon. 2020. “Motives of Turkic folklore in “Kutadgu bilig”. *Golden Scripts* 3: 3—26.

References

Alpomish. 1979. Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, yozib oluvchi M. Zaripov, birinchi nashrga tayyorlovchi H. Olimjon, qayta tayyorlovchilar H. Zarif va T. Mirzaev. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va

san'at nashriyoti.

- Bazen, L. 1986. "Chelovek i ponyatie istorii u tyurkov sentralnoy Azii v VIII v". *Zarubejnaya tyurkologiya, vip. 1. Drevnie tyurkskie yaziki i litervturi*. Otvetstvenniy redaktor akademik A.N. Kononov, s. 345-360. Moskva: Nauka.
- Bektemir botir. 1986. *O'zbek xalq ertaklari*, nashrga tayyorlovchilar M.Afzalov, K.Imomov, 100 – 111. Toshkent: Yosh gvardiya.
- Bombachi, A. 1986. "Tyurkiskie literaturi. Vvedenie v istoriyu i stil". *Zarubejnaya tyurkologiya, vip. 1. Drevnie tyurkskie yaziki i litervturi*. Otvetstvenniy redaktor akademik A.N. Kononov, s. 191-293. Moskva: Nauka.
- Dalgat, U.B. 1981. *Literatura i folklor. Teoritecheskie aspekti*. Moskva: Nauka.
- Farhod va Shirin. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li, yozib oluvchi B.Karimov. Nashrga tayyorlovchi M.Afzalov. – Bahrom va Gulandom.
- Gaben, A. 1986. "Kultura pisma i pechataniya u drevnix tyurkov". *Zarubejnaya tyurkologiya, vip. 1. Drevnie tyurkskie yaziki i litervturi*. Otvetstvenniy redaktor akademik A.N. Kononov, s. 159-190. Moskva: Nauka.
- Gorkiy, A.M. 1960. *Adabiyot haqida*. Toshkent: O'zdamnashr.
- Hojib, Yusuf Xos. 1971. *Qutadg'u bilig*. Nashrga tayyorlovchi va tarjimon Q. Karimov. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashryoti.
- Hacib, Yusuf Has. 1991. *Kutadgu bilig*. Metin, Resid Rahmeti Arat. Istanbul: Türk Dil Kurumu Yayinlari.
- Jirmunskiy, V.M., Zarifov, X.T. 1947. *Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos*. Moskva: OGIZ.
- Jirmunskiy, V.M. 1974. *Tyurkiski geroicheskiy epos*. Leningrad: Nauka.
- Koshg'ariy, Mahmud. 1963. *Devonu lug'oit turk*. Uch tomlik, 3-tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. Toshkent: O'zFan.
- Krinichnaya, N.A. 1977. *Russkaya narodnaya istoricheskaya proza. Vopros genezisa i struktur*. Moskva: Nauka.
- Mixaylov, T.M. 1987. *Buryatskiy shamanizm: istoriya, struktura i sotsialnie funksii*. Novosibirsk: Nauka.
- Nikitina, M.I. 1982. *Drevnyaya koreyskaya poeziya v svyazi s ritualom i mifom*. Moskva: Nauka.
- Propp, B.Ya. 1969. *Morfologiya skazki*. Izdanie 2-ye. Moskva: Nauka.
- Razzakov, X., Mirzaev, T., Sobirov, O., Imomov, K. 1980. *O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Stebleva, I. V. 1976. *Poetika drevnetyurkskoy literaturi i yee transformatsiya v ranneklassicheskiy period*. Moskva: Hauka.
- Vaselovskiy, A.N. 1940. *Istoricheskaya poeta*. Moskva: Xudojestvennaya literatura.
- Zarif, Xodi. 1971. "Kuntug'mish" dostoni haqida". *Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o'rni*. Tadqiqotlar. 2-kitob. Toshkent: Fan.
- Chistov, K.V. 2005. "Folklor. Tekst. Traditsiya". Moskva: OGI.

Shomirza Turdimov*(Toshkent, O'zbekiston)*

somirzaturdimov@yandex.ru

“Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostonida initsiatsiya talqini

Abstrakt

Ushbu maqolada “Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostonining yetakchi motivlaridan biri – qahramonning initsiatsiyadan o‘tishi bilan bog‘liq talqinlarning mifologik va tarixiy asoslari haqida fikr yuritiladi. Unda dostonning o‘zbek, ozarboyjon, turkman versiyalarida kelgan talqinlar qiyosiy aspektida o‘rganiladi. “Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostonining barcha qardosh versiyalarida qahramonning initsiatsiyadan o‘tishi motividagi makon, zamon – tog‘, g‘or, suv (buloq), daraxt (Boy terak), homiy eran (Xizr va chilton) obrazlarining yagona asosga ega ekanligi dalillanadi. Doston bobo sujetining yagona asosga ega ekanligi, qahramonning initsiatsiya jarayonidan o‘tishi uning alp sifatida qayta tarbiyat topishining asosiy shartlaridan ekanligi, unda qahramon jisman va ruhan hamiy eranlar tamonidan tarbiyat etilishining badiiy talqini ko‘rsatib beriladi. Qahramonlik dostonlari uchun mezon vazifasini o‘tovchi alplik tizimi tasavvurlarda muhim o‘ringa ega initsiatsiya jarayonining dostonning barcha qardosh versiyalarida o‘ziga xos ravishda badiiy ko‘rinishda tasvirlangani, ammo umumiy asosga egaligi isbotlanadi. Dostonning o‘zbek versiyasining Janubiy O‘zbekiston variantida qahramonning ma’naviy tarbiyasi mukammal badiiy talqin olganligi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *folklor, Go‘ro‘g‘li, motiv, initsiatsiya, mifologiya, versiya, o‘zbek, ozar.*

Muallif haqida: *Shomirza Turdimov* – filologiya fanlari doktori, O‘zRFASHI O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi.

Tavsiya etiladigan havola: Turdimov, Shomirza. 2020. “Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostonida initsiatsiya talqini”. *Oltin bitiglar* 3: 27—37.

Kirish

“Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostonining sujeti va yetakchi obrazlarining genezisi, taraqqiyot bosqichlarini qardosh turkiy xalqlardagi versiya va variantlarni qiyosiy o‘rganmay to‘liq amalga oshirish mumkin emas. Yuzdan ortiq dostonlarni qamrovchi, katta hajmdagi bu epik xazinani tadqiq etishda mavjud masalalarni bosqichma-bosqich, alohida o‘rganish muhim xulosalarga kelishga asos bo‘ladi. Biz ushbu maqolada muammoning ma‘lum bir qirrasi – bosh qahramon Go‘ro‘g‘li (Ko‘ro‘g‘li)ning alp sifatida tanilishi – qayta yaralishida yetakchi o‘ringa ega initsiatsiya bosqichlarining so‘nggi halqasidagi makon va homiy eranlar bilan bog‘liq o‘rinlarning o‘zbek, ozarboyjon va turkman versiyalardagi tasvirlarini qiyosan tadqiq etamiz. Kelingan xulosalar esa ayni jarayon tasvirining bobo sujetga tegishli halqalarini aniqlashga va doston genezisidagi tayanch motivlarning o‘rni va yaralish asoslarini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Eposning o‘zbek versiyasining deyarli barcha variantlarida qahramon initsiatsiyasining so‘ngi bosqichi tasviri deyarli bir-biriga yaqin keladi va voqealar tavsifi atroflicha badiiy psixologik tafsilotlari bilan berilib, Asqartog‘dagi chiltonlar g‘orida kechadi. Bu o‘rinda avvalo Asqartog‘ obraziga oydinlik kiritish talab etiladi.

Asqartov–epiktog‘bo‘lib, mohiyatan unigrek mifologiyasidagi Olimp tog‘i bilan qiyoslash mumkin. Etimologik jihatdan qaralsa, “Asqar” so‘zi ikki qismdan tashkil topib, “As”(az) – olov, “qar”(qir) – tog‘ ma‘nosidagi so‘zlar qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan. Asqar tog‘i so‘zma-so‘z “Olov tog‘” mazmunini anglatadi. Aniqroq aytilsa, Asqartog‘ – quyosh tog‘i, quyosh makoni yoki xudolar, homiy ruhlar yashovchi tog‘ demak. Asqartog‘ tasavvurining nisbatan mukammal tasvirini turkiy xalqlar folklor namunalari orasida “Alpomish” dostonining qozoq versiyasi “Alpamish botir”da uchratamiz. Bu o‘rinda Asqartog‘ quyidagicha tasvirlanadi:

...Bet aldina qarasa,
Asusiz Asqar bel yedi,
Belge shig‘a kelqdi.
Belden arman qarasa,
Jaltirap jatqan kol yedi.
Kol jag‘alay qarasa,
Sui tiniq aynadan,
Atilip tasip qaynag‘an
Jili bulaq der yedi

Basinda bir qara ag‘ash
Molasi joq, tami joq
Toni regi jalaqash.
Jag‘alay bitken sheqgeli
Sheqgeline qarasa
Qara ag‘ashpen tenedi
Kozini jasi tegilip
Jilap-yenirep yegilip
Arasinda shengeldi
Botaday bozdap keledi [Алпамыс батыр 1977, 172].

Turkiy xalqlarning qadim mifologik tasavvurlariga ko‘ra barcha insonlar ruhi ana shu Asqartog‘ tepasidagi sutli ko‘lda bo‘ladi, deb anglangan. Inson ruhi ko‘ldan yorug‘ olamga ko‘chib, u tug‘ilgach, sutli ko‘l o‘rtasidagi boyterakda ham bir barg paydo bo‘ladi. Bu barg inson umri barobarida o‘sib, uning barcha amallari shu bargga yozilib boradi, ko‘kdan farmoyish kelgach, uning o‘z yulduzi osmon toqidan uchib, bu yaproqni uzib tushadi, deb tushunilgan. Ayni qadim tasavvur yakuni, inson umri poyoniga yetgach, yulduzi uchib, boyterakdagi barg uzilgach, yorug‘ olamdagi ruh yana Asqartog‘ tomon yo‘l oladi, tarzida talqin etilgan. “Go‘ro‘g‘li” dostoning Po‘lkan shoir variantida qahramon yo‘qolgan toyini Xizr makoni Asqartog‘idan topadi. Dostonda “alpning qayta yaralishi jarayoni” aynan Asqar tog‘ida kechadi. Demak, Asqartog‘ ayni paytda yerning kindigi bo‘lib, dunyo og‘achi va tiriklik bulog‘i joylashgan joy hisoblanadi, Xizr va unga yordamchi eranlarning makoni sanaladi. Chori baxshi Umirov aytgan “G‘oyibnoma yoki Go‘ro‘g‘lining so‘nggi kunlari” dostonida yarador Go‘ro‘g‘lini G‘irot Asqartog‘ning qirq chiltan g‘origa olib boradi. Go‘ro‘g‘li parilarga umri poyonga kelganini aytar ekan: “Ey sevar yorlarim bir kuni go‘rda tug‘ilgan edim, bugun esa g‘orda ketayotibman” [Ғойибнома 2010, 62], deydi. Bu “g‘orning oldida katta archa bo‘lib, yonida buloq suvi oqib turibdi” [Ғойибнома 2010, 61]. Qirq yigit borib dam oladigan joy: “Asqar tovinning belida, ikki qoya orasida kun tiymas archazor bo‘lib unda buloq sharqirab oqib turardi. Shu yerdan Avazxon va 40 yigit supa ko‘tarib, dam oladigan joy qilib qo‘ygan edi [Ғойибнома 2010, 54]. Ma‘lum bo‘lmoqdaki, Go‘ro‘g‘li va uning yigitlarining hayoti Asqartog‘ undagi chiltan g‘ori, katta archa, buloq bilan chambarchas bog‘liq.

Dostonda Xizir boshliq chiltonlar Go‘ro‘g‘lini sharobi antaxur orqali alp sifatida “qayta yaralishi”ga sababchi bo‘lishadi, qahramon

sohibqiron sifatiga ega bo'ladi [Гўрўғлининг туғилиши 1967, 129]. Demak initsiatsiya kechuvchi makon – Asqartog', eranlar yig'iluvchi joy g'or bo'lmoqda. Initsiatsiya chiltonlar va Xizir ishtirokida amalga oshmoqda.

“Go'ro'g'li” turkumidagi qahramonning bosh erani Xizr obrazi tarixan butun tirik tabiat, yashillik, ezgulik ilohi, yaratuvchi eran – Quyosh timsolida anglangan, e'tiqod qilingan. “Go'ro'g'li” dostonlarida aynan Xizrning qahramonga homiylik qilishi birinchi galda ana shu fazilatlar va qudratga tayanadi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, xalqimizning islomga qadar bo'lgan mifologik tizimida Xizrga eng yuqori maqomdagi o't, olov, quyosh bilan bog'liq, yozni olib keluvchi, butun tabiatni, hayotni jonlantiruvchi, ularga tiriklik beruvchi ezgu eran, deb qaralgan. Ana shu asosda bu obraz ajdodlar kulti sifatida ham talqin qilingan. O'rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi o'z navbatida islomiy e'tiqod, dunyoqarash bilan birga islom va arab mifologiyasining ham bu yerga singishiga sabab bo'ldi. Natijada mahalliy mifologik tizim ham islomiy dunyoqarashga moslashdi. Ayni holatni quyosh turkum miflari va undagi yetakchi obrazlar misolida ham kuzatamiz. Buning yorqin misoli sifatida Qidir/Qizir/Xizr obrazini olish mumkin. Islomiy dunyoqarash, ayniqsa, so'fiylik tizimida Xizr alohida o'rin egallaydi. Aniqroq aytilsa, aksariyat so'fiylarning yo'l-yo'riq ko'rsatuvchisi Xizr deb anglashiladi. Buning yorqin misolini Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahror, Hazrati Bashir va boshqa aziz avliyolar hayotidan hikoya qiluvchi manoqiblarda ko'rishimiz mumkin. Bu azizlar hayotida Xizr haq yo'lini ko'rsatuvchi murabbiy, shogirdni sinovchi ustoz, tom ma'noda, so'fiylar homiysi sifatida namoyon bo'ladi [Ҳазрати Башир тарихи 1994, 136]. Xizr makonining Asqartog'da deb anglanishida va dostonida keluvchi boshqa epik joy nomlar – Bolli ko'li, Xizr cho'l (dashti)ji atalishi ham ushbu umumiy tizimning ajralmas yaxlit ko'rinishdagi halqalari hisoblanadi. Tub asosda Bolli (asalli) ko'l Asqartog'dagi sirli buloq, “Alpamis botir”dagi “jili buloqli ko'l”, oltoy folkloridagi “sut ko'li”, ozarbayjon “Ko'ro'g'li”sidagi “Qo'shabuloq”lar bilan yagona asos – o'zakka ega joylardir. Xizr cho'l (dasht)ji esa homiy eranlar makonini boshqa olamlardan ajratib turuvchi chegara hududi hisoblanadi. Bu hududdan eranlar himoyatidagi odamgina bexatar Asqartov va Bolli ko'lga bora olgan. Go'ro'g'li va qirq yigitning Asqartovda dam olib, panoh topishlari, Bolli ko'lda ov qilishlari bejiz emas, bu ularning homiy eranlarga tegishli shaxslar ekanligi bilan izohlanadi.

“Go'ro'g'li” dostonida qahramonning homiysi yolg'iz Xizr

emas. Doston voqealaridan ma’lum bo’ladiki, Xizr bilan bir qatorda qahramonga qirq chiltanlar ham homiylik qilishadi. Chilton obraziga xos quyidagi xossalar ham bu holatni isbot etadi:

Chiltan – qirq chiltan turkiy xalqlar folklori va maishiy hayotda keng tarqalgan mifik obrazdir.

- chiltanlarning tog’dagi g’orlarda yig’ilishi;
- yo’l boshlovchi kishining, avvalo, ezgu niyatli bo’lishi va shart buzilgan holdagina jazolovchiga aylanishi;
- chiltanlarning g’orida turli noz-ne’matlar, boyliklarning bo’lishi;
- bu noz-ne’matlarni so’roqsiz olingan vaqti tuproqqa, aksincha chiltanlar tortiq qilgan tuproq, tosh, loyning keyinchalik oltinga, javharlarga aylanib qolishi;
- chiltanlar g’origa tasodifan borib qolgan kishining o’zini tutishiga (fe’li-xo’yiga) ko’ra mukofotlanishi yoki jazolanishi (aksariyat holatlarda jazo o’lim bo’ladi).

Chiltanlar yer yuzini kezib, kishilarga yaxshilik qiluvchi, ularni yovuz kuchlardan himoya etuvchi eranlardir. Ular doimo tog’da (Asqartog’da), yanada aniqroq aytsak, yerning kindigida (markazida) Xizrning makonida yig’ilishadi. Dunyoning barcha voqealaridan uni boxabar etishadi. Ular Xizrning buyrug’ini bajaradilar. Xizrning yordamchilari hisoblanadi. Ular dunyoning barcha boyliklarini (moddiy, ma’naviy) asraydi, lozim ko’rilgan kishilarga hadya qiladi. Shartni buzganlarni jazolaydi. Chiltanlarning asosiy xizmatlaridan biri – kishilar ruhini yovuz kuchlardan himoya qilish. Tangri dunyoni Xizr va uning yordamchilari – chiltanlar orqali boshqaradi, deb tushuniladi.

“Alpomish” dostonidagi Barchin ko’rgan tushda:

...Kelayotir mast tuyaman aydahorlar aralash,

Yomon demay, yaxshi jo’rang, kanizlar.

Cho’llarda ko’rindi qirqta aydahor...

[Алпомиш 1999, 100].

Quyidagicha ta’birlanadi:

Cho’lda ko’rgan bo’lsang qirqta aydahor,

Qirq aydahor qirq chiltan pirlar bor.

Chilton – ajdar, ilon, ot, quyosh – Xizir va Go’ro’g’li obrazlari o’rtasidagi birlik yaxlit tizim bo’lib alohida o’rganishni talab etadi.

Dostonning turkman versiyasida Xizr/Xidir obrazi bosh eran sifatida namoyon bo’ladi. Dostonda bu jarayon quyidagi ko’rinishda berilgan: “... qahramon yo’qolgan otini istab, “Ikki kun yo’l yurib,

uchinchi kun bir chinorning tagiga bordi. Borsa, bir oppoq soqolli boboy nomoz o'qib o'tiribdi. Borib namoziga qo'shildi. Xufton o'n ikki kishi bo'lishdi. Tongga yaqin uch yuz oltmish eranlar shu yerga jamlashdi.

Bu charchab borgan emasmi, bir chetda uxlab qoldi. Eranlar jamlashib: "Bu qanaqa o'g'lon bo'ldi? Bu qanday o'g'lon?", – deyishaverdi. Shunda Xidir alayhissalom aytdi:

- Bu bizning nafas o'g'limiz bo'ladi.
- Sening nafas o'g'ling bo'lsa, qaysi kishining avlodidan?
- Bu Adibek sultonning o'g'li, Jig'alibekning nevarasi bo'ladi.
- Eha, tek kishining avlodidan emas ekan. Biz shu vaqtida

hammamiz jam bo'lganda, shu yigitni maqsadiga yetkazsak, qanday bo'ladi?

– Juda yaxshi bo'ladi-da, – deyishib, eranlar maslahatlashib, Ravshanni yotgan joyida behush etdilar. Qornini yorib, ichidagi borini yuvib, tozalab ichini nurga to'ldirib, qayta joy-joyiga qo'yib barcha eranlar fотиha berdilar. Ko'ro'g'li aksa urib o'rnidan turdi. Sharobutaxurdan qirq jom berishdi, buni ichib mast bo'lib yana yiqildi. Eranlar yana fотиha qilishdi. Yana aksa urib o'rnidan turdi" [Гер-оглы 1983, 46]. Turkman versiyasida initsiatsiya o'tuvchi makon cho'l, chinorning tagi deb tasvirlangan. Initsiatsiyani uch yuz oltmish eran va Xizir amalga oshirishadi.

Dostonning ozarboyjon versiyasida voqelik nisbatan real sharoitga ko'chirilgan: "Kunlardan bir kuni Ali kishi Ravshanni yoniga chiqarib aytdi:

– O'g'lim, bu yerdagi tog'larning boshida juft buloq bor, uni Qo'shabuloq deytilar. Har yetti yilning yettinchi juma oqshomi mashriq tomondan bir yulduz, mag'rib tomonida bir yulduz tug'adi. Bu yulduzlar kelib ko'kning o'rtasida to'qnashadi. Ular to'qnashganda, Qo'shabuloqqa nuri to'kilib, buloq ko'pirib toshadi. Kimki Qo'shabuloqning ana shu ko'pigida cho'milsa, u dunyoda tengi yo'q kuch-u quvvatga ega bo'ladi. Uning suvidan ichgan kishi oshiq bo'ladi. Ovozi shu qadar kuchli bo'ladiki, nafasidan arslonlar hurkib, qushlar ucha olmay, otlarning tuyog'i tushadi. Qanchadan-qancha yigitlar, shahzodalar bu suvni deb kelib, omadi chopmay qaytgan. Sen ham bor, shu Qo'shabuloqni axtarib top. Uning ko'pigidan mengayam olib kel" [Короғлы 1959, 36]. Ravshan otasi aytganday, Qo'shabuloqni topib, yulduzlar to'qnashib, nuri buloqqa tushganda ko'pirib toshgan suvga cho'miladi, u suvdan ichadi. Suvdan Ali kishining ko'r ko'zi ochiladi [Короғлы 1959, 36-37]. Ozorbayjon versiyasida initsiatsiya o'tuvchi joy tog', buloq. Lekin jarayon

qahramon otasi Ali kishining maslahati bilan bevosita Ko‘ro‘g‘li tamonida amalga oshiriladi. Dostonning “Korog‘lu-Bozolg‘oli” variantida esa ushbu magik quvvatli suvdan G‘irotga ham ichirishadi [Короғлу 1959, 401]. Ayni motiv o‘zbek versiyasida ham mavjud. Chiltanlar sohibqironni ko‘tara oluvchi ot ham sohibqiron bo‘lishi kerak deb, G‘irotga ham antahur mayidan berishdi [Гўрўғлининг туғилиши 1967, 129].

“Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostonining o‘zbek, turkman, ozarbayjon versiyalaridagi initsiatsiya – “alpning qayta yaralishi” tasvirlangan voqealari o‘zaro qiyoslansa, ular bir-birini to‘ldiradi va eposdagi “alpning qayta yaralishi” motivining ilk ko‘rinishini tiklashga imkon beradi.

a) “alpning qayta yaralishi” amalga oshuvchi joy:

- o‘zbek versiyasida: tog‘, chiltanlar g‘ori;
- turkman versiyasida: cho‘l, ulkan chinor tagi;
- ozarbayjon versiyasida: tog‘ ustidagi sirli buloq.

b) “alpning qayta yaralish” tafsiloti:

– turkman versiyasida: Go‘ro‘g‘lining ko‘ksi yorilib, barcha a‘zolari nur bilan yuviladi;

– ozarbayjon versiyasida: mag‘rib va mashriqdan chiqqan yulduzlar qo‘shilib, ularning nuri Qo‘shabuloqqa tushgach, suvning ko‘pirib toshishi va karomatli-ilohiy ichimlikka aylanishi hamda qayta yaralishning shu suv vositasida amalga oshirilishi (qahramonning suvda cho‘milishi, suvdan ichishi);

– o‘zbek versiyasida: chiltanlar davrasida ilohiy ichimlikni ichib, koinot sirlaridan voqif bo‘lishi, sohibqironga aylanishi.

v) “alpning qayta yaralishi”da ishtirok etuvchi shifobaxsh “ilohiy suv” (may). Dostonning ozarbayjon versiyasidagi yulduzlar nuridan ko‘pirib, ilohiy quvvat oluvchi buloq suvi motivi o‘zbek va turkman versiyalarida sharobu antahur bilan almashtirilgan. Lekin mohiyat bir xil.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan faktlar asosida dostonida initsiatsiya – “alpning qayta yaralishi” amalga oshgan joy va initsiatsiyani o‘tkazuvchi obrazlar xususida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Initsiatsiya – alp qayta yaralgan joy turkiy xalqlarning butun koinot tuzilishi haqidagi mifologik tasavvurlar tizimidagi yerning kindigi – markazi deb angланuvchi makon haqidagi tasavvurga aynan mos keladi. Ayni tasavvurning universal ko‘rinishi boshqa dinlar ta’siriga nisbatan kamroq uchragan oltoy turklari dunyoqarashida quyidagicha ko‘rinishda beriladi: “Ya’ni tog‘, tog‘ning tepasida sutli ko‘l, ko‘lning o‘rtasida yer (orol) va unda yer bilan osmonni

bog'lovchi – shoxlari ko'kka chirmashgan oltin bargli terak. Bu joy yerning kindigi deb atalgan" [Басилов 1984, 70].

Demak, "Go'ro'g'li" dostonining ilk bosqichlarida (barcha versiyalardagi motivlar bunga asos bo'ladi) initsiatsiya – "alpning qayta yaralishi" amalga oshuvchi makon ulkan tog' (o'zbek va ozarbayjon versiyalaridagi tog' va tog'dagi g'or)da, sutli ko'l (ozarbayjon versiyasidagi buloq, o'zbek va turkman versiyasidagi sharobu antahur. O'zbek versiyasining bir qator variantlaridagi qahramon onasining suv ko'pigi va suvda oqib kelgan olmadan homila topishi motivining ildizlari ushbu asosga bog'lanadi), ko'l o'rtasidagi orol va u yerdagi ildizi yer qa'riga, shoxlari ko'kka yetgan terak (turkman versiyasida initsiatsiyaning chinor ostida amalga oshuvi ushbu obrazning o'ziga xos ko'rinishi) ostida ya'ni, yerning kindigida amalga oshgan. "Go'ro'g'li" dostonining qadim bobo sujetida eranlarning – epik homiylarning makoni Asqartog' tepasidagi yerning kindigida joylashgan deb tasavvur qilinishi bekor emas.

Dostonning o'zbek va turkman versiyalarida initsiatsiya eranlar va qahramonning nafas otasi (ruhiy otasi) Xizir homiyligida amalga oshmoqda. Faqat ozarboyjon versiyasida bu motiv talqini real ko'rinish olib, eranlar vazifasini bilvosita qahramon otasi Ali kishi bajarmoqda (xabarchi sifatida). Aslida, Ali kishi obrazining o'zbek va turkman versiyalaridagi Jig'alibek obraziga bog'liqlik jihati bor. Bu bog'liqlik ismdagi uyg'unlikdagina ko'rinmaydi (chunki Jig'alibek ismini Aliga aylanishi oson va anglamli), balki obraz semantikasida ham bo'y ko'rsatadi.

Eranlar qahramonga initsiatsiya jarayonida faqat jismini pishitib, qurol-aslaha berib, ot bilan siylashmaydi, ushbu jarayonning eng muhim halqalaridan bir – alpning ma'naviy tarbiyasi masalasidir. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining Janubiy o'zbekiston versiyalarida ushbu jihat alohida mukammal badiiy-estetik talqinini olganligiga guvoh bo'lamiz. Dostonning Qodir shoir va keyingi avlod vakili Abdunazar Poyonov versiyalaridagi bu tasvirga diqqat qaratish maqsadga muvofiq.

"Go'ro'g'li, "Bismilloh", deb otning ustiga soldi, ayil-pushtani tortdi. Shunda yana bittasi: "Ma, Go'ro'g'li", – dedi. Go'ro'g'li qarasa, qimmatbaho kiyimlar bilan urush anjomlari, Go'ro'g'li G'irotni sozlab yakka jilov qilib boylab, bobolar bergan buyumlarni kiydi. Shu vaqt yana biri: "Kel, Go'ro'g'li, endi bu yerda o'tirib gaplarga quloq sol, barini tinglab ol", – dedi.

Bobolardan biri gap boshladi:

Tiriklikda bilgin davri-davronsan,
Oqibatda bir jonzodga makonsan,
Bu jahonda sanog‘i yo‘q insonsan,
Shuni bilgin bir-biringga mehmonsan.

Yana biri:

Bug‘doyga qaragin o‘rtasi tilik,
Chiroqni yondirib bo‘lmas bepilik.
Ming yil qilgan ibodatdan yaxshidir,
Qila olsang bir insonga yaxshilik.

Yana biri:

Yomonning kasodi tiyar har joyda,
Yaxshining yordami tiyar tang joyda.
Yomonning makoni doim tor bo‘lar,
Yaxshinig makoni bordir har joyda...”

[Қодир Раҳим ўғли, 103-107].

Eranlar Go‘ro‘g‘liga ta‘lim bergan bu pand-nasihatlar mazmuni insoniyatning asrlar davomida yiqqan odob-axloq qoidalari-ning qaymog‘idan iborat ekanligi bilan ham diqqatga sazovordir. Ushbu yig‘inda qatnashgan eranlarning har biri Go‘ro‘liga ilmi qol va ilmi holdan dars berishadi. Shu tartibda Go‘ro‘g‘li chinakam alp sifatida qayta yaranadi.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qahramonning initsiatsiya jarayoni so‘nggi halqasining tasviridagi uyg‘unliklar va bu motivlarning mifologik asoslari bizning doston genezisi haqidagi: “Nafaqat bosh qahramon va epik homiylar, balki dostondagi qahramong‘ayriqutbi,raqibi,ko‘makchilari,epikot,yor obrazlarining tadqiqi “Go‘ro‘g‘li” eposining ko‘hna ildizlarga ega ekanligini, doston yadrosining quyosh turkum miflari hamda marosimlariga va animistik tasavvurlarga bog‘liq eradan avvalgi ming yilliklarda paydo bo‘lganligini asoslaydi. “Go‘ro‘g‘li” dostonining yadrosi, sujeti va obrazlar tizimining mifologik hamda tarixiy asoslari qadim-qadimdan Turkiston kengliklarida yashab kelgan ajdodlarimizning tasavvurlari, dunyoqarashlariga bog‘liq sak, massaget va o‘g‘iz epik an‘analari asosida eradan avvalgi ming yilliklarda yaratilib, bosqichma-bosqich sayqal topib, to‘liq badiiy-estetik sathga o‘tdi. Arxaik eposning navbatdagi talqinlaridan bir shoxobchasi Markaziy Osiyodan Kavkaz va Kichik Osiyoga ko‘chgan o‘g‘iz qabilalari bilan u hududlarga ham tarqaldi, yangilandi. So‘nggi talqinlar o‘zaro madaniy-adabiy aloqalar natijasida Markaziy Osiyo versiyalariga

ham ma'lum ta'sirini o'tkazdi. O'zbek "Go'ro'g'li" dostonining qahramoni tug'ilishi tabiiy homila talqinini olgan versiyalarda bu holat aniq sezilsa-da, tug'ilish g'ayritabiiy homila talqinini olgan versiyalar qadimiy o'zanda rivojlanib, ta'sirlardan xoli qoldi. Ushbu versiyalarda saqlangan qadimiy motiv va unsurlar doston genezisini aniqlashda tayanch omillar bo'ldi" [Турдимов 2011, 219-220], degan fikrimizni dalillaydi.

Adabiyotlar

- Алпамыс батыр*. 1977. Батырлар жыры. 1-том. Алматы: Жазувши.
Басилов, В. Н. 1984. *Избранники духов*. Москва: ИПЛ.
Гер-оглы. 1983. Туркменский героический эпос. Москва: Главная редакция восточной литературы.
Гўрўғлининг туғилиши. 1967. Айтувчи Муҳаммад Жомрод ўғли Пўлкан. Нашрга тайёрловчи: М. Муродов. Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти.
Ҳазрати Башир тарихи. 1994. Тошкент: Шарофнома – Маориф.
Короғлу. 1959. Тартиб едани: М. Н. Таҳмасиб. Баку.
Қодир Раҳим ўғли. *Зайдиной*. Қўлёзма. Инвентарь № 1692.
Турдимов, Ш. Г. 2011. *“Гўрўғли” дostonининг генезиси ва тадрижий босқичлари*. Тошкент: Фан.
Ғойибнома ёки Гўрўғлининг сўнгги кунлари. 2010. Қарши: Насаф.

Shomirza Turdimov

(Tashkent, Uzbekiston)

somirzaturdimov@yandex.ru

The Interpretation of Initiation in “Gorogli” Poem

Abstract

This article discusses one of the leading motives of the epic "Gorogli" ("Korogli") - the mythological and historical basis of the interpretation of the hero's initiation. The interpretations of the epic in the Uzbek, Azerbaijani and Turkmen versions are studied comparatively. In all cognate versions of the epic "Gorogli" ("Korogli"), it is proved that the images of space, time - mountain, cave, water (rill), tree (Boyterak),

patron eran (Hizr and chiltan) have a unique basis. The fact that the plot of the epic has a single basis, the fact that the protagonist goes through the process of initiation is one of the main conditions for his re-education as an alp (hero) shows that the protagonist is brought up physically and mentally. The alp (hero) system, which serves as a criterion for heroic epics, plays an important role in the imagination, proving that the process of initiation is uniquely artistically described in all cognate versions of the epic, but has a common basis. In the South Uzbek variant of the Uzbek version of the epic, the spiritual upbringing of the protagonist is analyzed in a perfect artistic way.

Key words: *folklore, Gorogli, motive, initiative, mythology, version, Uzbek, Azeri.*

About the author: *Shomirza Turdimov* – Doctor of Sciences in Phlology, Senior Research Fellow of the Institute of Language, Literature and Folklore Named after Alisher Navoi, the Academy of the Republic of Uzbekistan.

Recommended citation: Turdimov, Shomirza. 2020. “The Interpretation of Initiation in “Gorogli” Poem”. *Golden Scripts* 3: 27—37.

References

- Alpamis batir*. 1977. Batirlar jiri. 1-tom. Almati: Jazuvshi.
- Basilov, V. N. 1984. *Izbranniki duxov*. Moskva: IPL.
- Ger-ogli*. 1983. Turkmenskiy geroicheskiy epos. Moskva: Glavnaya redaktsiya vostochnoy literaturi.
- Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi*. 1967. Aytuvchi Muhammad Jomrod o‘g‘li Po‘lkan. Nashrga tayyorlovchi: M. Murodov. Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti.
- Hazrati Bashir tarixi*. 1994. Toshkent: Sharofnoma – Maorif.
- Korog‘lu*. 1959. Tartib edani: M. N. Tahmasib. Baki.
- Qodir Rahim o‘g‘li. *Zaydinoy*. Qo‘lyozma. Inventar № 1692.
- Turdimov, Sh. G. 2011. *“Go‘ro‘g‘li” dostonining genezisi va tadrijiy bosqichlari*. Toshkent: Fan.
- G‘oyibnoma yoki Go‘ro‘g‘lining so‘nggi kunlari*. 2010. Qarshi: Nasaf.

Hamidulla Dadaboyev

(Toshkent, O'zbekiston)

dadaboyev@mail.ru

Ogahiy tarixiy asarlari soʻz boyligida oʻzlashma qatlamning oʻrni

Abstrakt

Mumtoz oʻzbek adabiyotining yirik namoyondasi Ogahiy tomonidan 1825–1874-yillarda Xiva xonlari tarixiga bagʻishlab bitilgan “Riyoʻz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jome ul-voqeoti sultoniyy”, “Gulshani davlat” va “Shohid ul-iqbol” asarlarida xonlik hududida yashagan oʻzbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq millatlarining ijtimoiy-maishiy turmush tarzi, xonlikning Buxoro amirligi, Qoʻqon xonligi, Eron, Hindiston, Afgʻoniston, Rossiya davlatlari bilan oʻrnatgan turfa munosabatlari, oʻzaro toʻqnashuvlar, savdo-sotiq aloqalari, norozilik qoʻzgʻolonlari, xalqlarning mentaliteti, urf-odatlarini keng yoritilishi qatori, davr oʻzbek adabiy tilining leksik boyligi, sintaktik qurilishi oʻz ifodasini topgan. Ogahiy asarlari soʻz boyligida ijtimoiy-siyosiy, harbiy, iqtisodiy, maʼnaviy, diniy, ilmiy-maʼrifiy va boshqa terminlar sistemasi yaqqol koʻzga tashlanadi. Ushbu terminologik tizimni shakllantirishda asl oʻzbek(turk)cha qatlam kabi arab, fors-tojik, moʻgʻul, xitoy va qisman, rus tilidan kirib kelgan istilohlar muhim rol oʻynagan. Mazkur maqolada Ogahiyning Xiva xonlari tarixiga doir asarlarida qayd etilgan oʻzlashma qatlam tarkibida juda qadimdan turkiy (oʻzbek) tilida faol ishlatilgan istilohlarning fonetik va semantik qurilishiga diqqat qaratildi, soha terminologiyasi tizimidagi muayyan tilning oʻrni, maqeyini belgilashda lingvistik va ekstralingvistik omillar hisobga olindi.

Kalit soʻzlar: *Xiva xonligi, soʻz oʻzlashtirish, ekstralingvistik omil, terminologik tizim, xitoycha oʻzlashmalar, qadimgi turkiy til, leksik tarkib, moʻgʻulcha oʻzlashmalar, oʻzbek adabiy tili.*

Muallif haqida: *Hamidulla Dadaboyev – filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti professori, Turon fanlar akademiyasi akademigi.*

Tavsiya etiladigan havola: Dadaboyev, Hamidulla. 2020.

“Ogahiy tarixiy asarlari so'z boyligida o'zlashma qatlamning o'rni”. *Oltin bitiglar* 3: 38—53.

Kirish

So'z o'zlashtirish har qanday til lug'at tarkibining shakllanishi va boyishida asosiy manbalardan biri hisoblanadi. So'z o'zlashtirish lingvistik va ekstralingvistik olimlar bilan bog'liq jarayon bo'lib, uning ta'sirini sezmagani bironta til dunyoda bo'lmasa kerak. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy-madaniy va boshqa munosabatlar natijasi o'laroq, bir tildan ikkinchi tilga tovushlar, so'zlar, terminlar o'zlashadi. Ayni shunday vaziyat, holat qardosh turkiy tillar, jumladan, o'zbek adabiy tili tarixiy taraqqiyoti bosqichlarida ham yaqqol namoyon bo'lgan.

Ma'lumki, qardosh turkiy xalqlar moziyda turkiy bo'lmagan xalqlar, mamlakatlar bilan yaqindan aloqaga kirgan, savdo-sotiq, diplomatik, diniy-madaniy, siyosiy, ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'ygan. Bunday munosabatlar bois turkiy tillar fonetikasi, leksikasi, grammatikasida noturkiy tillarga xos elementlar paydo bo'lgan [Мысаев 1984, 120].

Turkologiyada o'zlashmalar haqidagi dastlabki nazariy qarashlar qiyosiy-tarixiy tilshunoslik metodi hamda turkiy-shunoslik fanining asoschisi Mahmud Koshg'ariy tomonidan 1074-1076-yillarda tuzilgan “Devonu lug'otit turk”da o'z aksini topgan.

Qomusiy xarakterdagi lug'at muallifi turkiy tildagi u yoki bu leksemaning qaysi tilga xosligi yoxud uni arab va forstillari materiallari bilan chog'ishtirish asosida kelib chiqishi, ya'ni etimologiyasini belgilab beradi. Chunonchi, «din» ma'nosidagi *nom* terminining xitoy tilidan [Махмуд Кошғарий 1983, 127] kirib kelgani, «idish»ni anglatuchi кўз`ач//кўзäч istilohining arabcha (кузад)ga o'xshash, biroq *d* harfi *ch* ga almashgani [Махмуд Кошғарий 1960, 341], «kalit, qulf kaliti» ma'nosidagi *kirit* so'zining arabcha *iqolid* so'ziga yaqinligi, bunda arabcha so'zdagi *q* harfi *g* ga, *l* harfi *r* ga, *d* harfi *t* ga almashgani, alifning esa tushirilgani [Махмуд Кошғарий 1960, 339], «dona» ma'nosidagi *tana* leksemasining forsiy tildan (*dana*) olingani, turkiy til talaffuziga moslashtirilib, turkiylashtirilgani [Махмуд Кошғарий 1963, 151], «peshonasida oqi bor ot» ma'nosidagi *ug'ar at* birikmasi tarkibidagi *ug'ar* so'zining shaklan ham, mazmunan ham arab tiliga mosligi [Махмуд Кошғарий 1960, 87], “sizindi suv” ma'nosidagi тэринүк leksemasining arabcha shakli *tarinquq* ekanligi, *q* fonemasining *g* tovushiga almashtirilganini ta'kidlaydi [Махмуд

Кошғарий 1961, 335]. *Turkmancha* belgisi bilan lugʻatdan oʻrin olgan va “oʻgʻirlash, talash” maʼnosida qoʻllangan qarʼyt leksemasi haqida mulohaza yuritgan lugʻatnavis ushbu soʻzni arabcha *gʻarat* oʻzlashmasidan olingan, deb gumon qilishini bayon etgan [Махмуд Кошғарий 1960, 338]. “Devonu lugʻotit turk”da qayd etilishicha, eski turkiy tilda “kuchli hukmdor, davlat boshligʻi” maʼnosi qadʼыр istilohi bilan anglashilgan. Xoqoniyaliklar xonni *qadir xan* birikmasi bilan sharaflashgan. Lugʻat muallifi qadʼыр soʻzining ayni maʼnosida arabchaga oʻxshashlik borligi, zero, *qodir* soʻzi arab tilida “kuchli, har ishni qila oluvchi” maʼnosini ifodalashiga urgʻu bergan [Махмуд Кошғарий 1960, 344] va hokazo.

Chet tillarga oid oʻzlashmalar turkiy tillar, jumladan, oʻzbek adabiy tili lugʻat tarkibi, xususan, terminologik tizimini boyitish va rivojlantirishda muhim oʻringa ega. Oʻzlashmalarning aksariyati siyosiy, maʼmuriy-davlat boshqaruvi, harbiy ish, ilm-fan va maishiy turmushga doir maʼnolarni ifodalashda faollik koʻrsatgan. Shu oʻrinda oʻzlashmalarning mavzuviy maydon nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlanishini taʼkidlash lozim. Chunonchi, eski oʻzbek tili harbiy terminologiyasi, asosan, moʻgʻulcha oʻzlashmalar hisobiga kengayib borgan boʻlsa, maʼmuriy, siyosiy, tijoriy, ilmiy, diniy istilohlar aksariyat arabcha va forsha-tojikcha oʻzlashmalar hisobiga boyib borgan. Ayni paytda, xitoy, sugʻd, sanskrit tillaridan juda erta turkiy tillarga kirib kelgan baʼzi elementlar keyingi davr manbalari tilida ham qoʻllanishda davom etgan [Дадабаев 1991, 133-134].

Ogahiy tarixiy asarlari leksik tarkibi, jumladan, istilohlar tizimidan oʻrin olgan xitoycha oʻzlashmalarning soni oz boʻlsa-da, oʻz aksini topgan. Xitoy tilidan turkiy tillarga kirgan leksemalar haqida N.A.Baskakov [Баскаков 1987, 69-75], J.Kloson [Clauson 1972] va boshqa turkiyshunoslarning qarashlari maʼlumligini hisobga olib, biz mavjud taʼlimotlarga suyangʻan holda ularning Ogahiy asarlarida qanday maʼnoda ishlatilganiga toʻxtalish bilan cheklanishni maqsadga muvofiq topdik.

Ilk bor X asr qadimgi turkiy til obidasi hisoblanmish “Oltin yoruq” (Suvarnaprabhasa)da “ustoz, muallim” maʼnosida qayd etilgan *baqši* oʻzlashmasi [Древнетюркский словарь 1969, 82] *baxši* fonetik shaklda «Riyoʻz ud-davla» matnida «kotib, munshiy» maʼnosida ishlatilgan: *Yamutiya ulusiniṅ akábir va názimīdīn Davlī baxši va Xálmuhammad vakil... taraqqiy tapīb erdilār* [Ogahiy 1978, 43].

Eski oʻzbek adabiy tili manbalaridan “Gul va Navroʻz” matnida tahlil etilayotgan oʻzlashmaning *baxši* fonetik shaklda “mirza, kotib”

ma'nosini anglatganini kuzatish mumkin:

Yana darxvástim bar yaxšilardīn,

Muyul subīnī bilgan baxšilardīn [Фазылов 2006, 54v7].

Baytdagi *Muyul subīnī* izofali birikmasi ostida Chingizxon zamonida mo'g'ullar tomonidan o'zlashtirilgan turk (uyg'ur) yozuvi nazarda tutilgan. *Baxši* o'zlashmasi *bitig'či*, *mirza*, *kátib*, *dabir* istilohlaridan "turk (uyg'ur)" yozuvida hujjat tayyorlovchi, bituvchi" semasini ifodalashi bilan farqlangan. Amir Temur yurishlari aks etgan tarix asarlarida *baxši* istilohi "mirza, munshiy" ma'nosi qatori, "butparast ruhoniy, kohin" ma'nosida ham qo'llangan [Абдураззоқ Самарқандий 1969, 454]. Mazkur o'zlashmaning "turk (uyg'ur)" xatida hujjat bitivchi munshiy" ma'nosi Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida qayd etilgan quyidagi baytda ham ifodasini topgan:

Sartqa gārči bu barur yaxšilar,

Türk ilā ham yaxši barur baxšilar [Навоий 1970, 133-23].

Dashti Qipchoq xonlari To'xtamish, Temur Qutlug', Qirim hukmdori Saodat Gireyxon yorliqlari, Shohrux mirzo devonxonasiga tegishli Hirotda 1422-yilda bitilgan hujjat, Boburning padari buzrukvori Umarshayx mirzoning 1469-yilga oid vasiqasi [Омонов 2016,17] singari rasmiy hujjatlar insho qilingan turk yozuvining XVI asrga kelib Movarounnahr va Xurosonda iste'moldan chiqishi oqibatida *baxši* "mirza, kotib" ma'nosini anglatishga xoslangan hamda *kátib*, *munšiy*, *mirza*, *dabir* istilohlari bilan sinonimik uyani shakllantirgan.

Dashtlab qadimgi turkiy Enasoy bitiklari tilida "davlat oldidagi harbiy xizmatlari evaziga yer-mulk soliqlaridan ozod qilingan, bir qator imtiyozlarga ega bo'lgan shaxs" ma'nosida qo'llangan tarxan (ko'pligi *tarqat*) termini biz tahlil qilayotgan Ogahiy asarlari matnida alohida mavjud bo'lmasa-da, lekin uning ishtirokida *-liy* affiksi bilan yasalgan va «soliqdan ozod qilinganlik» manosini ifodalovchi *tarxanliy* yasamasi «Riyo ud-davla»da qayd etiladi: *Ul xalqnīnī barčasiya tarxanliy yarliyin karāmat qildī* [Ораҳий 1978, 64]. Tarixning guvohlik berishicha, tarxonlar turk-mo'g'ul xalqlarining ijtimoiy-siyosiy turmush tarzida o'ziga xos imtiyozga ega bo'lgan tabaqa sanalib, Chingiziylar, Temuriylar va keyingi sulolalar davlatida alohida mavqega ega bo'lgan. O'gadey (O'ktoy) xon davrida shakllangan tarxonlik instituti muayyan saltanatda yuritiladigan siyosatga kuchli ta'sirini o'tkazgan. Tarxonlarga berilgan imtiyozlardan biri ular sodir etgan gunohlarning 9 marta qonun tomonidan kechirilishi sanalgan. Ogahiy asaridan yuqorida

misol tariqasida keltirilgan jumla tarxonlik institutining Xiva xonligida hamon o'z mavqeyini saqlab qolganligini ko'rsatadi.

Qadimgi turkiy O'rxun-Enasoy bitiklari matnida faol qo'llangan *qayan* termini Ogahiy asaridagi *xaqan* fonetik shaklda, umuman, mamlakat boshliqlarini ulug'lovchi oliy unvon manosi kasb etadi. Istilohning mazkur vazifani bajarishi ancha ilgariroq, ya'ni Temuriylar saltanatida voqelangan edi. Tarix Temuriy mirzolardan Shohruxning *xaqan-i said* unvoni bilan sharaflanganiga shohid [Абдураззоқ Самарқандий 1969, 325]. Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asarida *xaqan* istilohi turk hukmdoriga nisbatan qo'llangani bilan xarakterlidir: *Bu işdin xaqan-i türk vâqif bolub, çerig tartib Jayxundin ötüb, anin vilâyatıya daxl qildi* [Навоий 1967, 219]. Istilohning ushbu ma'nosi XIX asrda ham o'z kuchini yo'qotmagan: *Xaqan-i gardunhaşam şahriyâr-i Iskandarşavkat... Abulgâzi Allâqulî Muhammad Bahâdirxan* [Огаҳий 1978, 40].

Qan fonetik shaklida O'rxun-Enasoy bitiklari matnida ishlatilgan *xan* istilohi «hukmdor, davlat boshlig'i» manosi anglatgan. Temurbek tarixiga oid asarlarda *xan* termini faqat Chingiz naslidan bo'lgan shaxslarga nisbatan ishlatilgan: *Ul hazrat xan xizmatıya kelib, asru köp inâyat va şafqat kördi* [Шарафиддин Али Яздий 1997, 25]. Ushbu holatni XV-XVII asr eski o'zbek adabiy tili manbalarida ham kuzatish mumkin. Chunonchi, "Boburnoma"da *xan* istilohi faqat Chingiziylar hamda Shayboniylar xonadoni vakillarini ifodalashga yo'naltirilgan. Ogahiy asarlarida *xan* termini nafaqat chingiziylar sulolasi vakillariga, shuningdek, chingiziylarga mutlaqo aloqasi bo'lmagan saltanat boshliqlariga nisbatan ham qo'llanavergan. Mazkur hodisa XIII-XVII asrlarda differensial ma'noga ega bo'lgan *xan* istilohining umumiy ma'no kasb etganini ko'rsatadi.

"Bayroq, alam, belgi" ma'nosidagi tuy o'zlashmasi Ogahiy asarlari tilida "biron bir mansabdor, amaldorga ramz sifatida beriladigan nishona, belgi" ma'nosini bildirgan: *Avazxâja şayxulislamniñ tuyin alib, amir-i ravşanzamir Muhammad Sâlih ataliqya marhamat qildilar* [Огаҳий 1980, 25]. Keltirilgan misol Xiva xonligida *şayxulislam* mansabi egasi hukmdor tomonidan shu mansabni tasdiqlovchi tug' bilan ta'minlangani, sarofroz etilganini bildiradi. Saltanatning alomati hisoblanmish tug' hamda nog'oraning Makka shariflaridan bo'lmish Sayyid Baraka tomonidan Temurbekka keltirilib peshkash qilinishi va u kishiga hukmdorlik mujdasining berilishi Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida o'ta jonli tarzda tasvirlangan [Шарафиддин Али Яздий 1997, 54^a].

Ogahiy asarlarida oldingi davr eski o'zbek adabiy

tili yodgorliklarida deyarli qo'llanmagan *čay* leksemasining "Gulshani davlat"da qayd etilishini ta'kidlash maqsadga muvofiq: *Muhammadniyáz devánbegi kečä tevägä qand va čay yúkläb, izdin kelib, ul janábniñ xizmatı šarafın taptı* [Огаҳий 1980, 179].

Eski o'zbek adabiy tilida, boshqa qardosh turkiy tillarda bo'lgani kabi, XIII asrdan e'tiboran leksik tarkibdan mustahkam o'rin egallashga erishgan mo'g'ulcha o'zlashmalar, asosan, harbiy terminologiya tarkibida, qisman, ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimida faollik ko'rsatgan. Eski o'zbek adabiy tili harbiy leksikasida qo'llanishda bo'lgan mo'g'ulcha o'zlashmalar G.Dyorfer [Doerfer 1965-1972], S.Nominoxanov [Номинханов 1973] hamda ushbu maqola muallifi tomonidan tadqiq etilgan [Дадабоев 1986, 32-37]. "Boburnoma" so'z boyligi tarkibidagi mo'g'ulcha o'zlashmalar haqida mulohaza yuritgan Z.Xolmanova nomlari qayd etilgan olimlar fikrlariga suyangan [Холманова 2007]. Ogahiy tarixiy asarlarining salmoqli qismi, yuqorida qayd etilganidek, Xiva xonlarining harbiy yurishlari, urush va janglari, qaror(lashkar)goh yoki qishloq(qishki qo'nimgoh)da joylashishi, ov ovlashi singari voqealarni tasvirlashga bag'ishlangan. Voqealar bayonida Ogahiy harbiy ishga oid ko'pdan-ko'p istilohlarni qo'llagan. Harbiy terminlar tarkibi asl o'zbek(turk)cha, qisman, forscha-tojikcha, arabcha va ulkan miqdordagi mo'g'ulcha leksik birliklardan tashkil topgan. Harbiy terminlar tarkibidagi mo'g'ulcha o'zlashmalar muallifining avvalgi ishlari va monografiyasida chuqur tahlil etilgani bois mazkur maqolada faqat ba'zi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimida ishlatilgan mo'g'ulcha o'zlashmalarga diqqatni qaratish bilan cheklanilgan. Shu o'rinda tahlilga tortilgan mo'g'ulcha o'zlashmalarning ma'muriy-harbiy sohadagi ma'no (tushuncha)larni ifodalashga xizmat qilganini ta'kidlash lozim bo'ladi. Kezi kelganda tarixiy obidalar matnida *yasavul* (turkcha-mo'g'ulcha), *daruya* kabi leksik birliklarning ham harbiy, ham ijtimoiy-siyosiy istilohlar tizimida qo'llanganini e'tirof etish maqsadga molik [Баскаков 1989, 63-71].

XIII asrdan boshlab harbiy harakatlar chog'ida, ayniqsa, g'anim tomonning mustahkam mudofaaga ega istehkomlarini qo'lga kiritish vaqtida mahalliy asirlardan tirik qalqon sifatida foydalanish harbiy taktikasining mo'g'ullar tomonidan keng istifoda etilgani tarixdan yaxshi ma'lum. Bunday tirik qalqon mo'g'ulcha *hašar* o'zlashmasi bilan ifodalangan. Ogahiy davrida bu mo'g'ulcha istilohning semantik qurilishida ma'no siljish hodisasi yuz bergan va uning zaminida yasalgan *hašariy* termini qandaydir ish-yumushni amalga oshirishda yordam, ko'mak beruvchi, ya'ni hasharchilarga

nisbatan qo'llangan: *Atráf javánibdīn hašariy va kárguzár ustád-i širinkár va bannáy-i jaládatšiyárlarni jam' qālib* [Орахий 1978, 153]. Demak, bugungi o'zbek tilidagi *hashar* va *hasharchi* so'zlarining ma'lum va mashhur ma'nolari XIX asrda shakllangan, degan fikrni ilgari surish imkonini beradi.

Saltanat oldidagi ulkan xizmatlari evaziga muayyan shaxsga hukmdor tomonidan tortiq, inoyat qilinadigan ko'chmas yer-mulk *suyuryal* termini bilan yuritilgani yaxshi ma'lum. Chingiziylar, Temuriylar va xonliklar davrida bu institutning faoliyati o'ta qamrovli bo'lgan. Arkoni davlat, a'yon hazrat, nufuzli ruhoniylar, atoqli sarkardalar, hukmdor sulola vakillari suyurg'ol bilan sarafroz etilgan. Beriladigan (tortiq qilinadigan) suyurg'olning hajmi-kattakichligi suyurg'ol egasining mavqiyi, davlat oldidagi xizmati, obrusi bilan o'lchangan. 1413-1414-yilda Shohrux mirzo atoqli sarkarda va davlat arbobi Shohmalikbekka Xorazm viloyatini *darbasta suyurg'ol* sifatida bergan. Shohmalik bu mulkda osoyishta turmush tarzini ushlab turgan, qo'shni davlatlar, xususan, Dashti Qipchoq xonlarini itoatga keltirgan, madrasalar, xonaqohlar, masjidlar, rabotlar, bog'-u rog'lar, hovuzlardan iborat ko'pdan-ko'p qurilishlar olib borgan [Абдураззоқ Самарқандий 2008, 477-478; Дадабоев 2018, 237].

Ogahiy asarlarida ushbu o'zlashma faolligi bilan diqqatni tortadi. Matnlarda *suyuryal* termini nafaqat in'om qilingan yer-mulk, hudud, viloyat, tuman, mavze, balki jangda mardlik ko'rsatgan askarlar-u qahramonlarga sovg'a sifatida beriladigan qo'y va otlarni ham anglatgan: *Saruq xalqīnī piškaš yosunida keltirgān bišumār qoylarīn laškar-i zafaršiyārya va yaxši atlardīn šuj'aáy-i nāmdárya baxšiš va suyuryal qilib...* [Орахий 1978, 50].

Temuriylar, Shayboniylar davrida qo'rg'on va qal'a hokimlari, ya'ni komendantlari mo'g'ulcha *daruya* o'zlashmasi yordamida ifodalangan. Ilk bor XII-XIII asrda turk(uyg'ur) yozuvida bitilgan turkiy manbalar matnida qo'llangan mazkur o'zlashma [Древнетюркский словарь 1969, 159] Temurbek qurgan saltanatda mavjud harbiy-ma'muriy mansab va lavozimlar ierarxiyasidan mustahkam o'rin olgan. Istilohning zikr etilgan ma'nosi Ogahiy tarixiy asarlarida ham o'z aksini topgan: Qultān *daruya qal'a zabtiya mutasaddi bolub, Qonyiratda qaldi* [Орахий 1978, 201].

Temuriylar davrida askarlarning biror joyga tushib, atrofini xandaq, aravalar yoki chetanlar bilan ihota qilishi mo'g'ulcha *kūrān* istilohi bilan anglashilgan. XV-XVII asr eski o'zbek adabiy tilida ushbu istiloh "guruh, to'da; qo'shin" ma'nosida ham ishlatilgan: *Jamuxani muxálifat qilib, bayxut va inrás qavmī on ūč kūrān jam' bolub,*

Čingizxan birlä uruṣub, šikast bolyanı [Таварихи гузида 1967, 42b-2]. Oʻzlashmaning “toʻsiq, gʻov, ihota” maʼnosi Ogahiy asarlarida ham saqlanib qolgan [Орахий 1980, 174]. Ayni chogʻda, ushbu oʻzlashma “urugʻ, qabila, guruh” maʼnosini ifodalash uchun ham yoʻnaltirilgan: *Muhammadkarim divánniḡ hamráhliyi bilä ularniḡ maktubin alib, yamut kūrāni jānibiya ázim boldilar* [Орахий 1980, 163].

Ogahiyning Xiva xonlari tarixiga bagʻishlangan asarlari tilida qoʻllangan moʻgʻulcha oʻzlashmalardan yana biri Chingizxonning ikkinchi oʻgʻli, 1224-yili oliy farmonga binoan Movarounnahrni idora qilish uchun tayinlangan *Chigʻatoy* (1241-yilda Qoraqurumda vafot etgan) antroponimi bilan bogʻlik leksik birliklardir. Maʼlumki, Chigʻatoyxonga boshqarish maqsadida otasi tomonidan berilgan Movarounnahr *Čiyatay* ulusī, uning aholisi *čiyatay xalqī*: Yana türk ulusī, bataxisis, *čiyatay xalqī* ara šayiʻ avzīndurkim, alar surudlarīn ul vazn bilä yasab, majlisda ayturlar [Навоий 1967, 479] yoxud *čiyatay eli* birikmasi bilan yuritilgan:

Čiyatay eli meni őzbek demäsün,

Bihuda fikr qilib yam yemäsün

[Муҳаммад Солиҳ 1961, 121].

Ogahiy asarlarida ham qayd etilgan *čiyatay xalqī* birikmasi yuqoridagi maʼnoni ifodalashda davom etgan: *Búnāh va oygruq ehtimālī čiyatay xalqīniḡ izzatpiyrasi Muhammadyaʻqub aqaya taʻin tapdı* [Орахий 1978, 47]. “Gulshani davlat” matnida *čiyatay* leksemasi etnonim, yaʼni urugʻ maʼnosida oʻz ifodasini topgan: *Darhāl sipāh-i nusratīštīmāl surʻat-u istiʻjāl bilä čiyatay sarī ilyar qıldilar* [Орахий 1980, 133].

Sir emaski, arab tilining turkiy tillarga kuchli taʼsiri XII asrdan voqelangan. Oldingi asrlarga oid eski turkiy til obidalari, xususan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarida arabcha oʻzlashmalar sezilarli miqdorni tashkil etmagan. Lekin XIV asrga kelib, arabcha oʻzlashmalarning turkiy manbalar tilidagi soni salmoqli boʻlib, ijtimoiy-siyosiy, diniy, ilmiy, maʼrifiy sohaga oid maʼno-mazmunini ifodalashda faollik qilgan.

Taʼkidlash joizki, Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimida arabcha oʻzlashmalar miqdor jihatdan koʻp boʻlib, ularning har biriga alohida munosabat bildirishning imkoni yoʻqligini hisobga olib, ayrimlarigagina diqqat qaratildi. Arabcha oʻzlashmalar ijtimoiy-siyosiy terminlar mavzuiy guruhlarining deyarli barchasida ishtirok etadi.

“Saltanat, davlat” maʼnosini anglatuvchi *mamlakat* va uning *mamālik* koʻplik shakli Xiva xonligida faol ishlatilgan. Shu

o'rinda, Ogahiy asarlarida har ikki leksik birlikning kichik viloyat, tumanlarga nisbatan ham qo'llanganini qayd etish lozim. "Davlat, hukumat; podshohlik, hukmronlik" mavhum ma'nosi shuningdek, *saltanat* istilohi bilan ham anglashilgan: *Hazrat-i xidev-i kámgar mazkur bolyan safardin murájaat qilib, mustaqarr-i saltanatda áram tutyandin soñ vuqu'ya yetdi* [Орахий 1980, 60]. Tahlil etilayotgan ma'no shuningdek, *vilayat, ólkä, bilád, davlat, mulk* istilohlari bilan ham anglashilgan. *Dáru mulk* izofasi ko'tarinkilik, emotsional-ekspressivlik, badiiylik belgisi bilan boshqa leksemalardan farqlangan. *Qal'a* (ko'pligi: *qilá'*), *hisár* istilohlari «qo'rg'on, mudofaa istehkomi» ma'nosini ifodalashda davom etgan. *Hisár* o'zlashmasi "tog'li hududdagi mudofaa istehkomi, qo'rg'on" semasi bilan xarakterlangan.

Hududiy bo'linishga bevosita aloqador *mavze, marhala* "yo'l ustida tushib o'tiladigan joy"; *atráf, javánib* "taraflar, atroflar, yoqlar", *manázil, manzil* "o'rin, joy" singari istilohlarga Ogahiy asarlarida keng o'rin berilgan.

"Turli guruh, urug', aymoq, birlashma" ma'nosini ifodalash *taváyif*, uning birlik shakli *táyifa* hamda *jamáa, tabáqat, xayl* leksemalari zimmasida bo'lgan. Xonlikda mavjud mansab, rutba, lavozimlarni anglatishda ham arabcha o'zlashmalarning ulushi salmoqli [Баскаков 1989, 63-71]. Chunonchi, *martaba, mansab, manásib, rutba* leksemalari xonligidagi mansablar iyerarxiasini ifodalashda xizmat qilgan: *Čerig soñidin yúrmäk účün alarya qaravulluq rutbası taxis tutdi* [Орахий 1978, 62].

"Muayyan davlat yoki mamlakat aholisi" sememasini ifodalash, asosan, *xalq, fuqará, rayáyá, rayyat, haláyi, ahl* o'zlashmalari zimmasiga yuklatilgan. Tobe yurtlardan olinadigan soliq turlari *uśr, xiráj, zakát*, qilinadigan turli sovg'a-salomlar, tortiqlar esa *tuhfa//tuhfát, iná'm, hadya//hadáyá, ihsán* istilohlari bilan anglashilgan.

Ko'pdan-ko'p mavhum ma'nolarni ifodalashda *vazarát* "vazirlik", *itáat* "bo'ysunish", *inád* "bo'yin tovlash", *risálat* "elchilik", *muxálifat* "dushmanlik", *mufsid* "fasodchi", *mulázamat* "xizmatkor", *ábá, ajdád* "ota-bobolar, ajdodlar", *safarát* "tashrif, safar qilishlik" kabi o'zlashmalar o'ta qo'l kelgan.

Ma'muriy-boshqaruv apparatining katta-kichik mansabdorlari nomlarini anglatishda ham arabcha o'zlashmalarning o'rni sezilarli bo'lgan. Xususan, *hákim, hukmrán, sultán, sáhib ul-farmán, amir, váliy, vakil, akábir, vazir, murabbiy* "ustoz", *umará, mulázim, mahram* "ichki, xizmatchi", *ámil* "soliqchi", *qázi, naqib, sadr* "rais",

mulázim “xizmatchi”, *kubará* “ulugʻlar, mashhurlar”, amir ul-umará “amirlar amiri, beklar begi”, qásid “*chopar, elchi*”, *rasul* “elchi”, *qáyimmaqám* “taxt vorisi, merosxoʻr” kabi oʻzlashmalar shular jumlasiga kiradi.

Din va shariat namoyandalarini nomlashda ham arabcha oʻzlashmalarning oʻrni sezilarlidir. Jumladan, *šayx, šayxulislám, muf-tiy, mutavalliy, avliyá, maxzum//maxdum, sufiy, rais* kabi arabcha oʻzlashmalar shular qatoridan oʻrin olgan.

“Buyruq, farmon” maʼnosi *amr, hukm*, “kelishish, ahdlashish” maʼnosi *muwáfaqat*, “ikki tomonning bir-biriga ishonch bildirishi, samiy doʻstlik” *musádaqa*, “muqim joylashgan” tushunchasi *mutavattin, mutamakkin* oʻzlashmalari bilan ifodalangan. Keltirilgan ashyoviy materiallar kesimida Ogahiy tarixiy asarlarida qoʻllangan ijtimoiy-siyosiy terminlar tarkibida arabcha oʻzlashmalar miqdorining qay darajada ekanligi xususida xulosa chiqarish mumkin.

XI – XIX asrlar davomida oʻzbek adabiy tili nafaqat islom mafkurasi va arab tili hamda yozuvi, shuningdek, fors-tojik tilining kuchli taʼsiri ostida qoldi. Turkiy va forsiy xalqlararo azaliy, yaqin munosabatlar negizida turkiy tillar, alalxusus, oʻzbek tili leksik boyligida juda katta miqdordagi forscha-tojikcha oʻzlashmalar paydo boʻldi. Ayni chogʻda, oʻzbek tili leksik elementlari fors-tojik tiliga kirib bordi, uning lugʻat boyligini yanada kengaytirdi.

Turkiy tillardagi fors-tojik oʻzlashmalari H.Neʼmatov [Неъматов 1969], B. Sultonov [Султанов 1981, 14-19], L.Rustemov [Рустемов 1963], A.Memetov [Меметов 1975] singari turkologlarning tadqiqotlarida aks etgan. XI – XIV asr turkiy manbalar tilidagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya tarkibidagi forscha-tojikcha oʻzlashmalar ham maxsus oʻrganilgan [Дадабаев 1980, 143-148].

Shuni alohida taʼkidlash joizki, XI – XIV asrlarga doir turkiy manbalar tilida qoʻllangan fors-tojik tili leksik elementlari Markziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Volgaboʻyi turkiy tillari lugʻat tarkibidan mustahkam oʻrin olgan va keyingi davrlarda ham faol qoʻllanishda boʻlgan. Arabcha leksemalar singari forscha-tojikcha oʻzlashmalar ham Ogahiy davri oʻzbek mumtoz adabiyoti obdolari tilida son jihatdan ziyodligi bilan xarakterlanadi. Shu oʻrinda, arabcha hamda forscha-tojikcha oʻzlashmalarning eski oʻzbek adabiy tili soʻz yasash jarayonida faol ishtirok etgani, oʻzbekcha affikslar bilan birikib, katta miqdordagi qorishiq soʻz hamda istilohlar yasaganini eʼtirof etish kerak.

Tahlilga tortilayotgan ijtimoiy-siyosiy istilohlar tarkibida

forscha-tojikcha o'zlashmalarning o'zni, mavqeyi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular yuqorida zikr etilgan mavzuviy guruhlarining barchasida o'z ulushiga ega.

Ijtimoiy-siyosiy terminlar tarkibida mavjud forscha-tojikcha leksik elementlarni davr nuqtayi nazaridan tasnif qilish jarayonida, ularni ikki katta, ya'ni XI – XIV asr eski turkiy til hamda XV – XVI asr Alisher Navoiy va uning izdoshlari asarlarida qayd etilgan o'zlashmalar guruhiga taqsimlash mumkin bo'ladi. XI – XIV asr eski turkiy til obidalari, jumladan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"i tilida forscha-tojikcha elementlarning ulushi nisbatan past darajada bo'lsa-da, XIV asr manbalaridan Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Qutbning "Xusrav va Shirin", Sayfi Saroyining "Guliston bi-t turkiy", Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Mahmud ibn as-Saroyining "Naxj ul-farodis" asarlarida forsiy o'zlashmalar sonining bir necha marta ko'paygani yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda, tabiiy, ekstralingvistik omillar, xususan, fors mumtoz adabiyotining, forsiydan turkiyga qilingan tarjimalarning roli yetakchilik qilgan.

Ma'lumki, Ogahiy, fors-tojik tilida yozilgan 19 ta asarni o'zbek tiliga mohirona o'giran. Shubhasiz, ushbu mutarjimlik faoliyati uning asarlarida forscha-tojikcha o'zlashmalar (so'zlar, istilohlar, izofali birikmalar, gap qurilishi konstruksiyalari)ning qo'llanishida aks etgan, deyish mumkin. Ayniqsa, fors-tojik tiliga oid jimjimador, emotsional bo'yoqdor so'zlar ishtirokida uzundan-uzun jumlar tuzish Alisher Navoiy ijodidan meros bo'lib kelayotgan anana Ogahiy uchun begona emas edi. Zotan, Alisher Navoiyni o'zining ulug' salafi, ustoz deb sanagan Ogahiy buyuk mutafakkirga ergashgan, uning yo'lini davom ettirgan.

XI – XIV asrlarga oid forscha-tojikcha o'zlashmalarning Ogahiy asarlaridagi ishtiroki sezilarli. Ular sirasiga pahlaván – "jasur, botir, pahlavon, polvon", pádšáh "hukmdor", šáh "hukmdor", sarbáz "askar", sarvar "boshliq, rahbar", sarhang "sarkarda", sulhnáma "tinchlik haqidagi bitim", faryád "dod, arz", farmán "buyruq, hukm", xánadán "sulola", xánaqáh, "mehmonxona", xaja-xoja "janob; xo'jayin", xusrav "shoh, podshoh", šahriyár "shoh, hukmdor", šáhána "shohlarnikidek, shohlarcha", šahzáda "hukmdor sulola vakili" kabi leksik birliklarni kiritish lozim.

XV – XIX asrlarda eski o'zbek adabiy tiliga o'zlashgan forscha-tojikcha elementlarning soni va sifati, albatta, oldingi asrlarga qaraganda farqlangan. Xususan, ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimidagi qator tushuncha va ma'nolarni ifodalashda ularning o'zni sezilarli

boʻlgan. Ushbu jihat Ogahiy asarlari leksikasida ham oʻz aksini topgan. Chunonchi, *sarupáy* “sarpo”, *nikxáh* “yaxshi xohishli, niyatli”, *xusravána* “podshohiy”, *piškaš* “tortiq, sovgʻa”, *sarámad* “omadli, baxtli”; *saranjám* “tugallash”, *námdár* “mashhur, atoqli”, *túrktáz* “turklar hujumi, hamlasi” kabi leksemalar mavhum maʼnolarni ifodalashga xizmat qilgan boʻlsa, xonlikda mavjud mansab va lavozimlarni anglatishda quyidagi istilohlar faollikka oʻrsatgan: mihtar, *sadar*, *sipahdár*, *kadxudá* “oqsoqol, boshliq”; *marzbán* “chegaradagi hudud hokimi”; *miráxur* “hukmdor otboqarlari boshligʻi”; *miráb* “xonlikda suv uchun masʼul shaxs”; *dádxáh* “fuqarolarning arzini hukmdorga yetkazuvchi saroy amaldori” va h.k.

Ogahiy asarlarida oʻzga oʻzbek mumtoz adabiyoti namoyandalari tilida mavjud boʻlmagan, boʻlgan taqdirda ham, maʼnosi butunlay farqli forscha-tojikcha birliklar ham ishlatilgan. Xususan, *náma* “xat, maktub” leksemasi ishtirokida hosil qilingan *muhabbatnáma* “sevinch xati, maktubi” [Орахий 1976, 81], *tahniyatnáma* “tabrik nomasi, muborakbod maktubi” (Орахий 1978, 20), *musadáqatnáma* “sodiqlik haqidagi maktub” [Орахий 1978, 51], *iʼtiqádnám* “ishonch maktubi, ishonchnoma”; *maʼzaratnáma* “uzrnoma, kechirim soʻrash maktubi”, *ixlásnáma* “muxlislik maktubi” [Орахий 2009, 247], *ináyatnáma* “sevinch va iltifot maktubi”, *muvaláfatnáma* “doʻstlik nomasi” [Орахий 2009, 50] kabi elchilikka tegishli istilohlar aynan Ogahiy tarixiy asarlari tilida oʻta faolligi bilan ajralib turadi.

Forscha-tojikcha oʻzlashmalar tarkibida izofalarning haddan ziyodligi kishi diqqatini tortadi. Forsiy izofalarning turkiy tillarda shakllanishi ancha ilgarigi davrlarga borib taqalsa-da, ularning keng miqyosda ishlatilishi XV – XIX asrlarga toʻgʻri keladi. Alisher Navoiy oʻzining nazmiy va nasriy asarlari tilida forsiy izofadan turkiy izofali birikmalar singari keng foydalangani sir emas. Shunday holat Ogahiy tarixiy yodgorliklari matnida ham namoyon boʻladi. Forsiy izofalarning ijtimoiy-siyosiy sohada ham muhim oʻringa ega boʻlganini qayd etgan holda muayyan ashyoviy materiallarni keltirish bilan kifoyalanamiz.

Maʼmuriy-boshqaruv tizimiga doir tushunchalarni anglatuvchi forsiy izofalar sirasiga *dargáh-i álampánah* “hukmdor saroyi” [Орахий 1978, 19], *sáhibqirán-i jannatmakán* “hukmdor, xon”, *xilʼat-i xusravána* “shohona toʻn, kiyim” [Орахий 1978, 20], *zubda-i dudmán* “sulola (xonadon) sarasi” [Орахий 1978, 21], *elčixana-i humáyun* “qutlugʻ elchixona” [Орахий 1978, 199], *hazrat-i aʼlá* “aʼlo hazratlari, xon, hukmdor” [Орахий 1980, 198], *arkán-i*

davlat “saltanatning ulug’ kishilari, tayanchlari” [Огаҳий 1980, 194], *ástán-i áliýshán* “dovrug’i ketgan saroy” [Огаҳий 1980, 62], *vazir-i a’zam* “bosh vazir” [Огаҳий 2009, 63] kabilarni kiritish joiz.

Ogahiyning hayoti va faoliyati Turkistonning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olishga qaratilgan siyosatning asta-sekin hayotga tatbiq etilishi paytiga to’g’ri kelgan. Tarixnavis ushbu jarayon bilan bog’liq voqea-hodisalarni asarlarida ifodalash asnosida rus tiliga oid *guburnatur* “lashkarboshi”, orus “rus”, *Rusiya* “Rossiya” singari termin, etnonim, toponimlarni tilga olgan: *Ittifáqá, ul uçurda guburnatur, ya’ni orus laskariniñ sarkardasi Qazaqiya taváyifidīn guruh-i anbuñni va Rusiya xaylidīn ba’zini Túrkistándīn Činas qal’asiniñ tasxiriya buyurmīs erdi* [Огаҳий 2009, 62]. Shunday holat “Riyoz ud-davla” matnida ham aksini topgan. Ogahiy rus tiliga xos leksemalarni o’zbek tili fonetikasi qonunlariga bo’ysundirgan tarza ifodalagan: *Bu yīl rajab ayiniñ ũčidā šamba kūni orus páytaxti Fetirburx pádšáhī impiratur Nikulay Pavlufičniñ qoşyan elčisi Prukufiy Andriiç binni Nikiqursiniñ hamráhliyi bilä kelib...* [Огаҳий 1978, 151].

Xullas, Ogahiy tarixiy asarlari so’z boyligi o’ta rang-barang va turfa bo’lib, unda asl o’zbek(turk)cha, arabcha, forsha-tojikcha, mo’g’ulcha, xitoycha, ruscha leksik birikmalar o’rni bilan qo’llangan. Eski o’zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi tarixiy-etimologik jihatdan nafaqat o’z, balki aynan qayd etilgan tillarga xos istilohlar zaminida shakllangan va rivojlangan.

Adabiyotlar

- Баскаков, Н.А. 1987. “К проблеме китайских заимствований в тюркских языках”. *Советская тюркология* 1: 69 – 75.
- Баскаков, Н.А. 1989. “Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства”. *Советская тюркология* 1: 53 – 59.
- Дадабоев, Х. 1986. “Эски ўзбек тили обидаларида мўғулча сўзлар”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 30 – 35.
- Дадабаев, Х. 1991. *Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв.* Ташкент: Ёзувчи.
- Дадабоев, Х. 2018. *Амир Темур даврдoshiлари (Мўъжаз энциклопедия).* Тошкент: Navoiy universiteti.
- Doerfer, G. 1965 – 1972. *Türkische und mongolische Elemente im Neupersischen. Bd. I -IV.* Wiesbaden.
- Древнетюркский словарь.* 1969. Ленинград: Наука.
- Меметов, А. 1975. *Персидские заимствования в современном крымско-татарском языке.* Автореф. дисс. филол. наук. Ташкент.
- Мусаев, К. 1984. *Лексикология тюркских языков.* Москва: Наука.

- Навоий, Алишер. 1967. *Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том*. Тошкент: Фафур Фулом.
- Нигматов, Х. 1969. "Махмуд Кашгарский о взаимовлиянии тюркских и иранских языков". *Иранская филология*: краткое изложение докладов научной конференции, посвященной 60-летию А.Н.Болдырева. Москва.
- Номинханов, Ц. 1943. *О монгольских административно-политических и военных терминах XIII - XIV вв., сохранившихся в узбекском языке*. Автореф. дисс. канд. филол. наук. Москва.
- Огахий, Муҳаммад Ризо мироб Эрнийезбек ўғли. 1978. *Асарлар. V жилд*. Тошкент: Фафур Фулом.
- Огахий, Муҳаммад Ризо мироб Эрнийезбек ўғли. 1980. *Асарлар. VI жилд*. Тошкент: Фафур Фулом.
- Огахий, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли. 2009. *Шоҳиду-л иқбол (Иқбол шоҳидлари)*. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Нафас Шодмонов. Тошкент: Муҳаррир.
- Омонов, Қ.Ш. 2016. *Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомилли (Илк ва Ўрта асрлар)*. Докторлик диссертацияси. Тошкент.
- Рустемов, Л. 1963. *Арабско-персидские заимствования в казахском языке*. Дисс. канд. филол. наук. Алма-Ата.
- Самарқандий, Абдураззоқ. 2008. *Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн*. II жилд биринчи қисм 1405–1429 йиллар воқеалари. Тошкент: Ўзбекистон.
- Солих, Муҳаммад. 1961. *Шайбонийнома*. Нашрга тайёрловчи: Насрулло Даврон. Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти.
- Таварихи гузида. *Нусрат-наме*. 1969. Исследование, критический текст, аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений к.ф.н. А.Акрамова. Ташкент.
- Холманова, З. 2007. *"Бобурнома" лексикаси*. Тошкент: Фан.
- Яздий, Шарафуддин Али. 1997. *Зафарнома*. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Аҳмедов, Ҳайдарбек Бобобеков. Тошкент: Шарқ.
- Clauson, Sir Gerard. 1972. *An Etimological Dictionary ot pro-thirteenthcentury Turkish*. Oxford.

Hamidulla Dadaboev

(Tashkent, Uzbekistan)

dadaboyev@mail.ru

The role of Loanwords in Vocabulary of Historical works by Ogakhi

Abstract

In the works "Riyaz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome ul-waqeoti sultoni", "Gulshani davlat" and "Shahid ul-iqbol" written during 1825-1874 years by Ogakhi, a great representative of classical Uzbek literature, are dedicated to the history of Khiva khans in the social life of the Uzbek, Turkmen, Kazakh, Karakalpak peoples living in the territory of the khanate, the unique relations of the khanate with the Bukhara Emirate, Kokand Khanate, Iran, India, Afghanistan, Russia, conflicts, trade relations, protests, the mentality of the peoples, also it reflects the vocabulary and syntax of that period. We can easily identify socio-economical, military, economical, spiritual, religious, scientific and other terms in Ogakhi's works. The terms borrowed from Uzbek (Turkic), Arabic, Persian, Mongolian, Chinese, and some Russian terms played a great role in the development of that terminological system. The article discusses phonetic and semantic structure of the borrowed terms, that have been actively used in the Turkic (Uzbek) language since ancient times and appear in Ogakhi's works devoted to the history of Khiva khanate. We also paid attention to linguistic and extra linguistic factors in determining the influence of different languages to the terminology of this field.

Key words: *Khiva khanate, loanwords, extralinguistic factors, terminological system, Chinese loanwords, ancient Turkic language, lexical content, Mongolian loanwords, Uzbek literary language.*

About the author: *Hamidulla Dadaboev* – Doctor of Sciences in Philology, Professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named After Alisher Navoi, Academician Academy of Sciences "Turon".

Recommended citation: Dadaboev, Hamidulla. 2020. "The role of Loanwords in Vocabulary of Historical works by Ogakhi". *Golden Scripts* 3: 38—53.

References

Baskakov, N.A. 1987. "K probleme kitayskix zaimstvovaniy v tyurkskix yazikax". *Sovetskaya tyurkologiya* 1: 69 – 75.

- Baskakov, N.A. 1989. "Tituli i zvaniya v sotsialnoy strukture bivshego Xivinskogo xanstva". *Sovetskaya tyurkologiya* 1: 53 – 59.
- Dadaboev, H. 1986. "Eski oʻzbek tili obidalarida moʻgʻulcha soʻzlar". *Oʻzbek tili va adabiyoti* 6: 30 – 35.
- Dadabaev, X. 1991. *Obshestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pismennix pamyatnikax XI-XIV vv.* Tashkent: Yozuvchi.
- Dadaboev, H. 2018. *Amir Temur davrdoshlari (Moʻjaz ensiklopediya)*. Toshkent: Navoiy universiteti.
- Doerfer, G. 1965 – 1972. *Türkische und mongolische Elemente im Neupersischen. Bd. I-IV.* Wiesbaden.
- Drevnetyurksiy slovar.* 1969. Leningrad: Nauka.
- Memetov, A. 1975. *Persidskie zaimstvovaniya v sovremennom krimsko-tatarskom yazike.* Avtoref. diss. filol. nauk. Tashkent.
- Musaev, K. 1984. *Leksikologiya tyurkskix yazikov.* Moskva: Nauka.
- Navoiy, Alisher. 1967. *Asarlar. Oʻn besh tomlik. Oʻn toʻrtinchi tom.* Toshkent: Gʻafur Gʻulom.
- Nigmatov, X. 1969. "Maxmud Kashgarskiy o vzaimovliyanii tyurkskix i iranskix yazikov". *Iranskaya filologiya: kratkoe izlozhenie dokladov nauchnoy konferensii, posvyashennoy 60-letiyu A.N.Boldireva.* Moskva.
- Nominxanov, s. 1943. *O mongolskix adminstrativno-politicheskix i voennix terminax XIII – XIV vv., soxranivshixsya v uzbekskom yazike.* Avtoref. diss. kand. filol. nauk. Moskva.
- Ogahiy, Muhammad Rizo mirob Erniyozbek oʻgʻli. 1978. *Asarlar. V jild.* Toshkent: Gʻafur Gʻulom.
- Ogahiy, Muhammad Rizo mirob Erniyozbek oʻgʻli. 1980. *Asarlar. VI jild.* Toshkent: Gʻafur Gʻulom.
- Ogahiy, Muhammad Rizo Erniyozbek oʻgʻli. 2009. *Shohidu-l iqbol (Iqbol shohidlari).* Nashrga tayyorlovchi, soʻzboshi va izohlar muallifi Nafas Shodmonov. Toshkent: Muharrir.
- Omonov, Q.Sh. 2016. *Turkiy rasmiy uslubning yuzaga kelishi va takomili (Ilk va Oʻrta asrlar).* Doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent.
- Rustemov, L. 1963. *Arabsko-persidskie zaimstvovaniya v kazaxskom yazike.* Diss. kand. filol. nauk. Alma-Ata.
- Samarqandiy, Abdurazzoq. 2008. *Matlai saʼdayn va majmai bahrayn.* II jild birinchi qism 1405–1429 yillar voqealari. Toshkent: Oʻzbekiston.
- Solih, Muhammad. 1961. *Shayboniynoma.* Nashrga tayyorlovchi: Nasrullo Davron. Toshkent: Oʻzbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti.
- Tavarixi guzida. Nusrat-name.* 1969. Issledovanie, kriticheskiy tekst, annotirovannoe oglyavlenie i tablitsa svodnix oglyavleniy k.f.n. A.Akramova. Tashkent.
- Xolmanova, Z. 2007. *"Boburnoma" leksikasi.* Toshkent: Fan.
- Yazdiy, Sharafuddin Ali. 1997. *Zafarnoma.* Soʻz boshi, tabdil, izohlar va koʻrsatkichlar mualliflari: Ashraf Ahmedov, Haydarbek Bobobekov. Toshkent: Sharq.
- Clauson, Sir Gerard. 1972. *An Etimological Dictionary ot pro-thirteenthcentury Turkish.* Oxford.

Mardon Rahmatov

(Toshkent, O'zbekiston)
mardonrahmat@gmail.com

O'zbek tili sintaksisi rivojida *chun* bog'lovchisining o'rni

Abstrakt

Tilda boshqa tizimdagi tillarga xos grammatik shakllarning qo'llanishi, ularning o'sha tilga xos sintaktik qoliplarining va mazmuniy munosabatlarning ifodalanishi masalasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shunday grammatik shakllaridan biri *chun* bog'lovchisidir. Mazkur maqolada *chun* bog'lovchisining qo'llanishi tarixi, uning o'zbek tili sintaksisi taraqqiyotidagi o'rni masalalari zamonaviy tilshunoslikda erishilgan yutuqlar asosida o'rganildi. Jumladan, bog'lovchining obyektiv (diktum) va subyektiv (modus) mazmundagi gaplarni shakllantirishi, obyektiv mazmunli gaplar qo'shma gapning tobe komponenti sifatida qo'llanib sabab, payt, shart, o'xshatish kabi mazmuniy munosabatlarni ifodalashi, subyektiv mazmunni ifodalanganda esa kiritma gap sifatida qo'llanishi ochib berildi. Shuningdek, bog'lovchining yana bir o'ziga xos jihati mavjudligi aniqlangan, ya'ni bog'lovchining gap tarkibida, turli gap bo'laklari orasida qo'llana olish imkoniga egaligidir. Bu masala gapning grammatik mazmun planini, ya'ni sintaksisning kommunikativ aspekti nuqtayi nazaridan yondashib o'rganildi.

Tahlilga tortilgan til materiallari o'zbek tilining sintaktik qurilishi taraqqiyoti masalalariga oydinlik kiritadi. Shuningdek, chiqarilgan ilmiy xulosalar, asoslar klassik va zamonaviy o'zbek adabiyoti, fors adabiyotining hozirgi o'zbek tilidagi tarjimalarida uchraydigan *chun//chu* bog'lovchining matndagi ma'nolarini to'g'ri anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *bog'lovchi, morfologik shakl, sintaksis, gap, qo'shma gap, tobe gap, kirish so'z, kiritma gap, aktual bo'linish, tema, rema.*

Muallif haqida: *Rahmatov Mardon Mehmonovich* – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti.

Tavsiya etiladigan havola: Rahmatov, Mardon. 2020. "O'zbek tili sintaksisi rivojida *chun* bog'lovchisining o'rni". *Oltin bitiglar* 3: 54—68.

Kirish

O'zbek tili turkiy tilning tarixan taraqqiy etgan bir tarmog'idir. O'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti masalalarini belgilashda XIII asr oxiri va XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan eski o'zbek tili deb ataluvchi davrning tili ahamiyatli. Jumladan, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning adabiy til ravnaqi uchun olib borgan kurashi madaniyatimiz tarixida muhim o'rin egallaydi. U chinakam vatanparvar shoir va olim sifatida xalq tilining bitmas-tuganmas manbalaridan foydalanish, uning boyligi va nafisligini namoyish etish bilan faqat o'z zamondoshlariga emas, balki undan keyingi butun avlodlarga ham o'rnak ko'rsatdi. U yaratgan asarlarida o'zbek tilining boy xazinasidan foydalanish bilan birga shu davr an'anasiga muvofiq boshqa tizimdagi tillarning elementlarini qo'lladi. Jumladan, uning asarlarida fors tiliga xos bo'lgan *chun, to, -ki, agar, agarchi* kabi bog'lovchilar va boshqa forsiy grammatik shakllarni shu darajada mahorat bilan qo'lladiki, bu kabi bog'lovchili gaplar adib asarlarining uslubiy me'yorini ta'minladi.

Chun bog'lovchisi o'zbek yozma yodgorliklarida XIII asrdan to XX asrning boshlarigacha qo'llanishda bo'lgan. *Chun* bog'lovchisi faqat nasriy asarlar tilida qo'llangan bo'lsa, she'riy asarlarda *chun* shakli bilan bir qatorda uning fonetik varianti *chu* shakli ham faol qo'llangan. Ularning qo'llanish tarixida ba'zi farqlar kuzatiladi: *chun* XIII – XIV asr ayrim yodgorliklarida – «Qissasi Rabg'uziy», «Tafsir»da nisbatan kam uchraydi, biroq XV – XVI asrlar adabiy manbalarida, jumladan, Alisher Navoiy va Boburning nasriy va nazmiy asarlarida ko'p ishlatilgan [Абдурахмонов, Шукuroв 1973, 311]: *chu* esa XV asrdan boshlab qo'llanilgan bo'lib, faqat she'riy asarlarda uchraydi. *Chun//chu* bog'lovchisi XIX asr o'zbek yozuvchi va shoirlari asarlarida kam bo'lsa-da, uchraydi. Bog'lovchi XIX asrning oxirida paydo bo'lgan matbuot tilida ham qo'llangan [Рахмонов 1971, 27]. Ammo keyinchalik o'zbek adabiy tili me'yorlari talabiga javob bermagani uchun iste'moldan chiqib ketdi. *Chun//chu* bog'lovchisi hozirgi o'zbek adabiy tili normasi sanalmasa-da, ba'zan she'riy asarlarda uchrab turadi:

O'n sakkiz ming olam oshubi

Padar boshindadir,

Ne ajab, chun o'g'li oning

O'n sakkiz yoshindadir [Boхuдoв 1986, 333].

Keyingi yillarda o'zbek tiliga klassik va zamonaviy fors tilidan o'girilgan tarjima asarlar tilida ham *chun/chu* bog'lovchilarini

uchratish mumkin:

*Layli bu g'azalni chun eshitti,
Yig'i bila toshni eritti [Низомий 2005, 89-103].
Xunrez chun reshi donarezman
Sargashta chu gardi xonarezman.
Chu bilmasmen o'zingdin o'zga kasni
Bu boshlardin chiqarg'il bu havasni [Аттор 2005, 62].*

Uchun ko'makchisi va chun bog'lovchisi

Uchun ko'makchisi turkiy tillarga xos bo'lib, u qadimgi turkiy manbalarda ham uchraydi: *qag'an uchun* (xoqon uchun) [Абдурахмонов 1982, Тб. 48], *qazg'antuq uchun* (g'alaba qozongani uchun) [Абдурахмонов 1982, Тб. 61], *quti bar uchun* (baxti bor uchun) [Абдурахмонов 1982, Ктб. 10] kabi. E.Fozilov *uchun* ko'makchisi O'rxun-Yenisey, uyg'ur, turfon manixey yodnomalari tilida: sabab, vaj, bois; ish-harakat biror shaxsga, predmetga atalganligi, yo'nalganligi, bog'liqligi; maqsad kabi ma'no munosabatlarini ifodalashini aytadi [Фозилов 1965, 135].

Eski o'zbek tilida ham *uchun* ko'makchisining *-chun* shakli ham qo'llangan va bosh kelishikdagi otlarni, qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshlarini boshqaruv yo'li bilan bog'lagan. Masalan: *aning -chun* [Нав. ФШ, 37], *bizning -chun* [БН, 79], *qiymati -chun* [Нав. «СС» 50]; *inshoollo -chun* [ТФ], *ne-chun* [ҚР], *anung -chun* [ХШ], *ne -chun*, *hurmati -chun* [С.Саройй], *ruxsori -chun* [ЛТ] [XV – XIX asrlar... 1990, 252] kabi. Hozirgi o'zbek she'riyatida ham ba'zan *uchun* ko'makchisi *-chun* shakli (fonetik varianti)da uchrab turadi.

Ko'rinadiki, *uchun>chun* ko'makchisi va *chun* bog'lovchisi bir-birini takrorlamaydigan grammatik vositalar sanaladi. Qadimdan qo'llanib kelingan *uchun* va she'riyatdagi *-chun* (*uchun>chun*) ko'makchisi softurkiy, *chun* bog'lovchisi esa fors tiliga xos grammatik vositadir. *-chun* (*uchun>chun*) va forsiy *chun* bog'lovchisi shaklan bir-biriga teng kelib qolgan omonim (ikkita so'z) sanaladi. Ularning farqli xususiyatlarini quyidagilarda ko'rinadi:

a) *uchun* (*uchun>chun*) ko'makchisi o'zbek tilida ot, sifat va sifatdoshlardan so'ng qo'llanib, ularning fe'l tomonidan boshqariluvini ta'minlovchi grammatik vosita sanaladi. Masalan:

– ot va otlashgan so'zlarni fe'lga boshqaruv yo'li bilan bog'laydi: *Türk budun üchün tün udimadim, küntüz olurmadim* [Абдурахмонов 1982, БХб] (Turk xalqi uchun kechasi uxlamadim, kunduzlari o'tirmadim);

– fe'l o'ramlarini boshqaruv yo'li bilan bog'laydi: *Täñri küch*

bärtük üçün, aqañim qag'an süsi böri-täg ärmish, yaqısı qoy-täg ärmish [Абдурахмонов 1982, БХб-7] (Tangri kuch bergani uchun otam xoqonning lashkari bo'ridek, dushmani qo'ydek emish);

b) forsiy *chun* bog'lovchisi esa boshqaruv munosabatini emas, balki bir sodda gapni ikkinchisiga bog'laydi va muayyan semantik munosabatni yuzaga chiqaradi. *Chun Yusuf a.s. burqa' bila erdi, alar tonimas erdilar* [Navoiy 2000, 127]. Ushbu gapda *chun* bog'lovchisi *Yusuf a.s. burqa' bila erdi* gapini sabab munosabatiga ko'ra bosh gapga bog'lagan;

v) uchun ko'makchisi bilan qo'llangan morfologik shakllar sabab, atalganlik ma'nosida keladi va forsiy *chun* bilan ekvivalent bo'la oladi; *chunning* semantikasi payt, shart ma'nosini ifodalashiga ko'ra uchun ko'makchisidan farqlanadi;

g) shuningdek, ular qo'llanish o'rniga ko'ra ham farq qiladi. *Uchun* ko'makchisining gapda qo'llanish o'rni turg'un, ya'ni faqat boshqarilayotgan so'zdan keyin *chun* bog'lovchisi esa har doim ergash gap tarkibida (nutq egasining kommunikativ maqsadi bilan bog'liq holda ergash gap tarkibidagi turli bo'laklari orasida) qo'llanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida keng iste'molda bo'lgan *chunki* bog'lovchisi *chun* bog'lovchisiga *-ki* (forscha *-ke* كه) ergashtiruvchi bog'lovchisining qo'shilishi yo'li bilan hosil bo'lgan. Bog'lovchi xususida doktor Muhammad Mo'inning o'zining "فرهنگ فارسی" asarida *chun* va *ke* چونكه-(چون+كه) bog'lovchilarining birikuvidan tuzilganligini aytadi [محمد مُعین ۵۷۳۱, ۱, ۰۲۳۱]. Bu bog'lovchi boshqa turkiy tillarda, jumladan, ozarbayjon, gagauz, qirim-tatar, tatar, turk, turkman tillarida ham qo'llanadi [Гаджиева 1973, 365].

Ta'kidlash o'rinliki, *chunki* bog'lovchisining o'zbek xalq nutqida ishlatilishi chegaralangan, buni o'zbek xalq shevalari sintaksisini sof turkiy qolipda ekanligi bilan izohlash mumkin. Bugungi kunda ham xalqimiz bu bog'lovchiga faqatgina adabiy til mas'uliyati bilangina murojaat qiladi. Ya'ni so'zlovchi o'z fikrini bayon qilishda adabiy nutqqa tayansagina, *chunki* bog'lovchisini qo'llashga ehtiyoj sezadi.

Turkiy matnlarda qo'llangan *chun* bog'lovchisining gapdagi o'rni va ma'nolarini o'rgangan olimlarning fikrlari deyarli bir xil. Jumladan, A.M.Shcherbak [Шчербак 1962, 219]. N.Z.Gadjiyeva [Гаджиева 1973, 365] bu bog'lovchining payt, sabab, shart ergash gaplarni hosil qilishda ishtirok qilishi, G'Abdurahmonov va Sh.Shukurov [Абдурахмонов, Шукуров 1973, 311], A.Matg'oziyevlar [Матғозиев 1966, 2] esa gapda payt, sabab, shart, o'xshatish, natija

munosabatlarini ifodalashini ta'kidlaydi. shuningdek, M.Rahmonov vaqtli matbuot tilida sabab, payt, S.Solixo'jayeva ham payt ma'no munosabatini ifodalaganini qayd etishgan [Солихўжаева 1988, 14].

Chun bog'lovchisiga zamonaviy fors tiliga bag'ishlangan adabiyot, lug'atlarda quyidagicha sharh berilgan. M.Abdusamatov bu bog'lovchi hozirgi eron adabiy tilidagi sodda va qo'shma gaplarda payt va sabab mazmuniy munosabatli ergash gaplarni bosh gapga bog'lashini aytadi [Абдусаматов 1977, 200; 296]. Forscha-o'zbekcha lug'atda uning: o'zbek tilidagi kabi ko'makchisi ma'nosiga teng kelishi (- ماه چون *oy kabi*); - *gach* ravishdoshi ifodalagan ma'noda qo'llanishi (u kelgach...); *qanday?*, *qanday qilib?* (بی چون *so'roq olmoshlari ma'nosida kelishi haqida ma'lumot beriladi* [Pyctamov va b. 73]. Lug'atshunos doktor Muhammad Mo'inning izohlashicha, *chun* bog'lovchisi qadimgi pahlaviy tili (*chidun* - چیدون) so'zidan olingan bo'lib, o'xshatish (تثبیه, مانند, مثل), *payt* (هنگامی, وقتی), *zero* (زیرا), *bad in sabab* (بدین سبب *ushbu sababdan so'ng*) ma'nosida; fors tilida so'roq olmoshlari (*qanday?*, چگونہ؟ چطور؟) o'rnida qo'llanishini qayd qiladi [ص-۲۳۱، ۱، ۵۷۳۱، محمد مُعین]. Shuningdek, doktor Hasan Anvariylarning izohli lug'atida bu bog'lovchi (*to*) تا اینکه (*toinki*); اگر (*agar*) bog'lovchisi, (*pas chero?* پس چرا *keyin nega endi?*); در حدود (*dar hududi - hududida*); قریب (*qariyb*), نزدیک (*nazdik - yaqin*); چه (*che - nima?*), قدر (*che qadar - nimagacha?*, *qanchalik*); از آن جاکه (*az on joke-o'sha joydanki*), مانند (*monandi*); مثلی (*misli*) so'zlari o'rnida qo'llanishi haqida ma'lumot beradi va uning fors she'riyatida *chu* shakli keng qo'llanishini ta'kidlaydi va *chu* {چون=} *chun* bilan ma'noda bir xil ekanligini ko'rsatgan holda uning «shoirona» so'z ekanligini aytadi [حسن انوری]. [سخنی ۲۱۳۱، ۳، ۱۴۲]. Bundan tashqari, eski o'zbek tilida faol qo'llangan va hozirgi o'zbek tilida qo'llanuvchi ayrim so'zlarning kelib chiqishini *chun* bog'lovchisining tarixiy taraqqiyoti bilan bog'lashadi. *Chunon* so'zi ham (*chun va on - shu damda, shu onda, shu vaqtda*) aslida so'zlarining qo'shilidan, *chunin* so'zi ham (*chun va in - shunda*) aslida so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lganligi qayd qilinadi [ص-۵۷۳۱، ۱، ۲۳۱، محمد مُعین].

Ta'kidlanganidek, *chun* bog'lovchisi jumla tarkibida qo'llanib, bir necha mazmun-munosabatlarni ifodalagan. Bog'lovchi sabab mazmunidagi gapning boshida qo'llanganda, hozirgi o'zbek tilidagi *shuning uchun* bog'lovchisi (ko'makchili qurilma) bajargan sintaktik vazifaga sinonim bo'ladi.

Klassik matnlardagi *chun* bog'lovchili sabab ergash gapli qo'shma gaplar hozirgi o'zbek tiliga transformatsiya qilinganda,

shuning uchun bog'lovchisi, shuningdek, hozirgi o'zbek tilida mavjud bo'lgan sifatdosh+ko'makchi (*-gani uchun*) morfologik shakli ma'nosiga mos keladi. *Chun Ardasherining o'g'li yo'q erdi, dedikim, nechuk malomat bo'lmag'aykim, olam mulkin oldim...* [Навой 2000, 224]. Jumlani quyidagicha transformatsiyalash mumkin: *Ardasherining o'g'li yo'q edi, shuning uchun dedi... yoki Ardasherining o'g'li bo'lmaganligi uchun (sababli), dedikim...*

Chun bog'lovchisi ishtirok etgan payt ergash gapli qo'shma gaplarni ba'zan hozirgi o'zbek adabiy tilidagi payt ma'nosini ifoda qiluvchi *-ib, -b, -gach, -gandan so'ng* kabi grammatik vositalar bilan transformatsiyalash mumkin. *Chun o'tunlar cho'g' bo'ldi, yerga yoydilar* [Навой 2001, 155]. Transformatsiyasi: *O'tinlar cho'g' bo'lgach // -gandan so'ng yerga yoydilar* kabi. Anglashiladiki, *chun* bog'lovchisi va uning turkiy ma'nodoshlari o'zaro vazifadosh sanalib, bir xil mazmundagi o'ramlarning sinonimiyasini hosil qiladi.

***Chun* bog'lovchili gaplarning mazmuniy xususiyatlari**

Har qanday lisoniy belgi o'zining shakliy va ma'no xususiyatlari birligidan iborat. An'anaviy sintaktik nazariyalarda, asosan, lisoniy belgining shakliy tuzilishi bilan bog'liq masalalar o'rganib kelindi. Gapning mazmuniy xususiyatlari bilan bog'liq tadqiqotlarda, asosan, uch aspektda: propozitiv (nominativ) aspekt, modal (obyektiv, subyektiv modallik) aspekt, kommunikativ (tema-rematik) aspektlarda o'rganilmoqda. Bularan til birligi sifatidagi gap semantikasida faqat propozitsiya va obyektiv modallik mavjud bo'lsa, nutq birligi sifatidagi gap (jumla) semantikasida esa ulardan tashqari, albatta, kommunikativ aspekt va ba'zan subyektiv modallik ham ishtirok etadi [Нурмонов va b. 1992, 31].

Lingvistik adabiyotlarda gapning propozitiv (nominativ) aspekti obyektiv borliq bilan bog'langan denotativ aspekt nomi bilan ham yuritiladi. Denotativ voqealar ba'zan diktum (obyektiv mazmun), ularning subyektiv talqini esa modus (modal, subyektiv mazmun)lar bilan hosil qilinishi aytiladi [Черемисина, Колосова 1987, 35]. Obyektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri, asosiy uzvi hisoblansa, subyektiv modallik obyektiv modallik ustidagi qo'shimcha modallikdir [Нурмонов va b. 1992, 31]. Demak, har qanday nominativ asosga ega bo'lgan gaplardagi modallikni bir-biridan farqlash zaruriy shartlardan sanaladi. Rus tilshunosi V.V.Kazmin bir xil sintaktik shaklga ega bo'lgan turli predikativ qurilma (diktum va modus)larni mazmun xususiyatlariga ko'ra statik va dinamik aspektda o'rganadi [Казмин 1983, 36].

Statik aspektda predikativ qurilmalar tarkibidagi modus voqealar sintaktik ortiqchalik asosida, dinamik aspektda modus voqealarning predikativ qurilmada kommunikativlik bilan bog'lab o'rganadi. *Chun* bog'lovchili predikativ qurilmalarni o'rganish jarayonida lingvistikaning struktur funksional va kommunikativ planida bir xil emasligini kuzatiladi. Shuning uchun *chun* bog'lovchili gaplarning umumiy mazmun xususiyatlari, denotativ voqealarni ifodalashiga ko'ra ikki turga ajratish o'rinli: 1. Obyektiv mazmun (diktum) munosabatli predikativ qurilmalar. 2. Subyektiv mazmun (modus) munosabatli predikativ qurilmalar (kiritma va izoh qurilmalar).

Tilshunoslikda gapning asosini tashkil qilgan predikatlarga qarab, bir predikatli va ko'p predikatli gaplarga bo'lish odat tusini olgan. *Chun* bog'lovchisi ishtirok qilgan har qanday gap polipredikativ gaplar sanaladi. *Chun* bog'lovchili polipredikativ gaplarning obyektiv borliqqa munosabati – denotativ voqealarning ifodalanishi, gapga xos bo'lgan predikativlik belgilariga ega bo'lishi, ular orasidagi semantik va sintaktik munosabatlarni hisobga olib, bosh va ergash gapdan iborat ergash gapli qo'shma gap sifatida baholash o'rinli.

Sintaktik o'rin gapdagi predikatni ifodalagan so'zning ma'nosi va, demak, valentligiga ko'ra yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, bosh gapning kesimi vazifasidagi so'zning ma'nosi va valentligi ergash gapning mohiyatini va qo'llanishini ta'minlaydi [Махмудов 1991, 16]. *Chun* bog'lovchili predikativ qurilma sintaktik jihatdan har doim old mavqeda, bosh gapdan oldin qo'llanadi va uning predikati valentligi ma'nosiga ko'ra unga bog'lanadi va ergash gapli qo'shma gaplarni hosil qiladi.

Chun bog'lovchili predikativ ifoda sintaktik jihatdan har doim old mavqeda, bosh gapdan oldin qo'llanadi va uning predikati valentligi ma'nosiga ko'ra unga bog'lanadi va ergash gapli qo'shma gaplarni hosil qiladi. Masalan:

Payt ergash gapli qo'shma gaplar: *Chun yeyildi, Xoja bir qurs manga berdi* [Навоий 2001, 257].

Chun bog'lovchisi payt mazmun munosabatini ifodalaganda *vaqteki* so'zi bilan sinonim sifatida qo'llanishi mumkin. Masalan: *...ul vaqtiki, laduniy ko'zi bila boqsaq, andoqdur va chun g'ayri laduniy ko'zi bila boqsoq, mundoq* [Навоий 2001, 177].

Chun bog'lovchisi payt mazmun munosabatini ifodalaganda ma'nosi *qachon* so'ziga teng keladi: *Yashirin Hoshuqa har qachon vajd yetishsa erdi, rangi oqarur erdi, chun ul vajd taskin topsa, yana ham ul rangiga qaytar erdi* [Навоий 2001, 102].

Ba'zan payt mazmun munosabatlarini yanada reallashtirish

maqsadida bosh gap tarkibida mazmuni payt bilan bog'langan leksik vositalar ham qo'llangan. Masalan: *Chun tafahqus qildilar, hamul kun Horun ar-Rashid o'tub erdi* [Навоий 2001, 486].

Payt ma'nosini oydinlashtirish uchun bosh gapda payt ma'nosini bildiruvchi *ul vaqt* birikmasi qo'llanadi: *Chun qonun va chag'ona nolasi quloqqa tushgay va mahvashi soqiy yukunub, may oyoqqa tushgay, ul vaqt zuhudu taqvog'a ne e'tibor va xushu xiradg'a ne ixtiyor* [Навоий 2011, 31].

Chun bog'lovchili gapda o'tgan zamon aniqlik maylidagi fe'l bilan birga ba'zan ersa to'liqsiz fe'li qatnashishi mumkin: *Chun otti ersa, barcha gunohlaridin pok bo'ldi va gunohlari to'kuldi* [Навоий 2000, 304]. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turganidek, payt ma'nosi *-sa erdi* yoki *-di ersa* bilan ifodalanganda, fe'ling predikativlik belgilari almashinib turadi.

Ba'zi o'rinlarda *chun* bog'lovchisi qo'llangan payt mazmunli gaplarning kesimida turkiy payt ma'nosini ifodalovchi grammatik shakllar qo'llanganligi ham kuzatiladi. Bunday hollarda paytmazmuni bevosita turkiy grammatik shakl yordamida shakllantirilgan, *chun* bog'lovchisining o'rni esa mavjud payt ma'nosini kuchaytirish, ya'ni uning yuklamalarga xos xususiyati bo'rtib turadi. Shuning uchun bunday gaplarni analitik tipda shakllangan gap qoliplari emas, balki, yuqorida ta'kidlanganidek, boshqaruv munosabatidan tuzilgan qo'shma gaplar sifatida qarash to'g'ri bo'ladi: Masalan: *Chun Vaqqos bu ikki o'qni otmoqdin so'ng, Payg'ambar a.s. aydi: bir o'q Xudoyi taoloning nomi uchun otqil*. [Навоий 2000, 305]. Yana bir misol: *Chun burung'i matla' aytilg'onda, alar hazratig'a yiborib, niyoz yuzidin arz qilib, tatabbu qilurg'a istijoda qilib erdi* [Навоий 1999, 37].

Sabab ergash gapli qo'shma gaplar: *Chun o'kurmak muqobalasida forsiy tilda lafz yo'qtur, forsiy shoir muningdek g'arib mazmun adosidin mahrumdur* [Навоий 2000, 15]. Ushbu gapda fors shoirlarining ma'noni ifodalay olmasliklariga sabab forsiy tilda o'kurmak so'zining yo'qligidir.

Ba'zan *chun* bog'lovchisi bosh gap tarkibida qo'llangan turkiy qurilmalar bilan birga qo'llanib sabab mazmunini kuchaytirishda ishtirok etgan. Bunday gaplarda ham asosiy sabab ma'nosi turkiy ko'makchili qurilmalar yordamida yuzaga chiqariladi. Ular quyidagilar:

1. *Aning uchun birikmasi: ...chun sanga kelmak bizga Haq s.t.g'a mashg'ulluqlardindur, aning uchun Tengridin ayriluqqa uzr qo'lmasbiz* [Навоий 2001, 91].

2. *Bu sababdin birikmasi: Chun Hom Nuh alayhissalomg'a*

beadabliq qilg'on jihatidin aning muborak tiliga Hom borasida qarg'ish o'tub erdi, bu sababdin anga rangi bayozi savodg'a mujarrad bo'lub,....fasohat va balog'at hulyasidin oriy qoldi [Навоий 2000, 11].

3. Ul jihatdin birikmasi: Chun qochib kelgan kishi hanuz ko'rinmaydur erdi, ul jihatdin hanuz ul bobda hech nav' hukm voqe' bo'lmadi [Навоий 2000, 167].

4. Ul munosabat bila birikmasi: Chun mulkdin ba'zi aqolim va kishvarda sort salotini mustaqil bo'ldilar, ul munosabat bila forsigo'y shuaro zahur qildilar [Навоий 2000, 35].

Ba'zan bosh va ergash gaplarning sabab mazmunidan tashqari yondosh ma'nolar ham anglashiladi:

Chun bog'lovchili tobe komponent ham sabab, ham payt ma'nosiga ega bo'ladi: Chun Iskandar xiroj yubormadi, Doro kishi yiborib, ming oltun bayzani tilatti [Навоий 2000, 214].

Sabab ergash gap birdan ortiq holda qo'llanganligi ham kuzatiladi: Chun bu fan ahli forsigo'ydurlar va turk alfozidin bahramand emaslar, tab'i ul jonibdin e'roz qilib, bu fang'a mashg'ul el sari mayl ko'rguzur [Навоий 2000, 24]. Bu gap ... u fan ahli forsigo'ydurlar, turk alfozidin bahramand emaslar, shuning uchun ... tarzida transformatsiya qilinishi mumkin. Quyidagi gapda ham sabab-natija ma'no munosabati ifodalangan: Chun bu tariqda himmat oliy erdi va tab' bebok va louboliy, o'targ'a qo'ymadi va tamoshasidin to'ymadi [Навоий 2000, 25].

Shart ergash gapli qo'shma gaplar: Chun qorin ochlig'i, ya'ni bo'shlig'i zohir bo'lsa, ani oshlig' va hubub bila to'la qilurlar [Навоий 2001, 497].

Chun bog'lovchisi shart mazmunli ergash gaplarni bosh gapga bog'laganda, agar bog'lovchisiga ma'nodosh bo'lishi mumkin: Chun ul eltsa, yermoq oladur va agar ul yigit eltsa, silli uradurg'on ko'rgungdur [Навоий 2001, 336]. Solishtiring: Va agar osiy bo'lsa, e'tiroz qilg'ay, va chun e'tiroz qilg'ay, qabul tushgay [Навоий 2001, 404]. Chun ul eltsa, yermoq oladur va agar ul yigit eltsa, silli uradurg'on ko'rgungdur [Навоий 2001, 336]. Aytish mumkinki, bu tipdagi gaplarda chun, agar bog'lovchilari shart mazmunini yuzaga keltirishda qatnashadi. Ergash gaplarning predikatida qo'llangan – sa shart mayli affiksi qo'shma gapning turkiylashgan shakli sanaladi.

Qo'shma gaplarning predikatlarining umumiy mazmuni asosida anglashiladigan shartlik ma'nosi quyidagicha hosil qilingan:

1. Chun sen bular mamlakatin har qoysini zaruratan birovga bergungdur, avval o'zlariga o'q tarbiya berib, o'z qoshingdin bularni mulkka nasib qilib qo'yg'aysenkim... [Навоий 2000, 218].

2. *Chun bu firoq shiddatidin tahrir ojiz va bu ishtiyoq suubatidin tahrir qosirdur, xoma tili ravonlig'idin ne foyda va til xomasi gavhar fishonlig'idin ne natija?* [Навоий 2000, 210].

3. *Chun bog'lovchisi ishtirok qilgan ergash gapli qo'shma gaplarning predikati -gay, -kay, -g'ay, -qay kelasi zamon affikslari bilan qo'llanganda, bog'lovchili tobe komponent amalga oshmagan mo'ljal, orzu kabi irreal ma'nolarni ifodalaydi. Shuning uchun bunday gaplarni shart ergash gapli qo'shma gap sifatida o'rgandik. Masalan: Chun muborak nazarlari tushgay, isloh bila mutarrafb o'lg'ay* [Навоий 2000, 168]. Biror-bir ish-haraktning yuzaga kelishi orzu qilingan, mo'ljallangan maqsad kabi mazmuniy munosabatlarni ifoda qiladi: *Chun ogoh bo'lgay, hayotidin toriqqay va uyot dudi dimog'idin chiqqay...* [Навоий 2011, 44].

Ba'zan shart ergash gapli qo'shma gaplarni belgilashda predikatlarning mazmuni asos bo'lishi mumkin. Masalan: *Chun bu baytlarni bu fan bila mezon qilib, mavzunini nomavzundan ayururlar, go'yoki, qiymat va bahosi ma'lum bo'lur, bu munosabat bila «aruz» debturlar* [Навоий 2000, 46]. Ushbu gapni quyidagicha tushunish lozim: *bu baytlarni ...o'lchab, mosini nomosidan ayirsalar, (aytishlaricha) qiymat bahosi ma'lum bo'ladi.*

Predikatlarning biri bo'lishsiz shaklda qo'llansa, to'siqsizlik ma'nosi ham anglashiladi: *...chun ko'ngillar o'lgay, aning ko'ngli o'lmagay* [Навоий 2001, 125].

Chog'ishtirish va o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar:
Bunday ergash gapli qo'shma gaplarning mazmuniy asosini qiyoslash munosabati tashkil etadi. *Chun bog'lovchisi o'xshatish ergash gaplarning bosh gapi predikatida -dek affiksi qo'llangan: Chun bu tavr davlat muyassar bo'ldi va bu nav' saodat yuz ko'rguzdi, quyosh otashi burjig'a taqvil qilg'ondek...* [Навоий 2001, 206].

Chun bog'lovchili kiritma konstruksiyalar

Chun bog'lovchili kiritma konstruksiyalarning subyektiv mazmuni bilan bog'liq talqinlar til tarixiga oid ishlarda qayd etilgan [Аширбоев 1990, 26], ammo maxsus o'rganilmagan. Bu bog'lovchili predikativ qurilma ifodalagan mazmuniy munosabat, asosan, denotativ voqeani shakllantirib turgan sintaktik shakllarni mazmunan to'ldirish, aniqlashtirish, izohlashdan iborat. Bu sintaktik konstruksiyalar tilshunoslikda izoh iboralar, kiritma iboralar yoki kiritma konstruksiyalar nomi bilan yuritiladi [Аширбоев 1990, 28].

Ma'lumki, izoh va kiritma konstruksiyalar gap shaklida qo'llanadi va gapga xos predikativlik belgilarga ega bo'ladi.

Fitrat 1914-yili Turkiyadan qaytib keladi. U Turkiyada bo'lgan vaqtlaridayoq Turkiston matbuotida, xususan Behbudiy nashr qilgan "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnalida o'zining maqolalari bilan faol ishtirok eta boshlaydi. Ushbu maqolalar tahlilga tortilsa Fitratning o'sha vaqtda ayni islomchilik g'oyalarini ilgari surganligini ko'rish mumkin. Fitrat jadidchilikning "otasi" bo'lgan Gasprinskiyning utopik, ideal islom davlati qurilishiga oid fikrlari aks etgan "Doru-r-Rohat musulmonlari" romanini 1915-yili fors tiliga tarjima qilib nashr etdi [Айний 1926, 543]. Fitratning ayni shu asari tarjimasiga qo'l urganligini Turkiya tahsilidan so'ng islomchilik fikriga berilganligi va 1914-1916-yillarda bu g'oya ijodining asosini tashkil qilganligini ayni davrda e'lon qilingan maqola va asarlari yana bir bor tasdiqlaydi. Fikrimizning dalili sifatida quyida uning "Oyina" jurnalida e'lon qilingan maqolalaridan namuna beramiz. Shuningdek, Fitratning ozarbayjon matbuotida Buxoro yoshlari, ularning faoliyatlari bilan bog'liq masalada e'lon qilingan maqolaga javob maqolasining ham matni berilmoqda. Fitratning ushbu maqolasi yangi topilgan va hozirga qadar Fitrat ijodi va faoliyati bilan bog'liq biror bir tadqiqotda tilga olinmagan. Ushbu maqola Buxoro jadidlari, ayniqsa, "Yosh buxoroliklar" harakatining ayrim qirralarini ochib berish, ular faoliyatidagi shu vaqtga qadar noma'lum bo'lgan jihatlarni yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Matni joriy imloda – tabdilda berilayotgan maqolalarning tili, uslubi asl holicha qoldirildi. Maqolada keltirilgan Qur'on oyatlarini ham Fitratning o'zi tarjima qilgan va ayrimlariga izohlar ham bergan. Bu maqolalar Fitratning dunyoqarashi, faoliyat qirralarini to'laqonli tushunishga xizmat qiladi.

Qur'on

Samoy uluhiyatdan ibroniycha "quvvatu-l-loh" ma'nosini ifoda aylagan, Jibril kabi in bir vosita ila so'ng daf'a qilib piri nur Muhammadig'a etdiki holda "takomul" qoidayi umumiyasinch butun kutubi samoviyaning ochiq va komilrog'i bo'lib turgan Qur'on

kabi bir kitobg'a hanuz diqqat va e'tino bilan nazar solmagan bizlar ham turlu balo va musibatg'a muhtalo bo'lur esak, haqqimizdur. Hech bir kimsadan shikoyat qilmoqg'a haqqimiz yo'qdur.

Qur'on kabi bir muqaddas kitobning dediklarini qabul va ijro aylagan bir millatning zamonimizdagi biz musulmonlar qadar mazallat va jaholatg'a tushmasi aslo mumkin emasdur. Qur'on shunday bir qonuni ijtimoiy erurki, o'zig'a tamoman amal qilaturgan bir millatni sharaf, saodat, davlat va azamat kabi fazoyili insoniyadan nasibador qilmay qo'ymaydir.

Taraqqiy uchun lozim bo'laturgon butun amaliy va fanniy asbobdan mahrum etdugi uchun *"asri johiliyat"* otalmog'a haqiqatan loyiq bo'lgan bir zamonda; nifoq va jaholat daryolarinda tushub qolgan arab millatini o'ttuz-qirq yil madaniyatda jahongir aylagan Qur'on emasmi? Yana shul zamonda o'z vatandosh va aqrabosindan zuhur etgan bir payg'ambarning qatlig'a bel bog'lamoq kabi taassub sohibi bo'lgan hazrati Umarni; zamoni xilofatinda Madinadan – Baytu-l-Muqaddasg'a qadar bir tuyag'a o'z quli ilan navbat banavbat minajak qadar uluhimmat egasi qilg'on shul Qur'on emasmi? Xususiy dalillarg'a na hojat?

"Va inna laysa li-l-insani illa ma sa'a" (Inson uchun harakatidan (qilgan ishlaridan) boshqa narsa yo'q) va *"Lahum nasibun mimma kasabu"* (Ular qilgan narsalaridan boshqa narsa topolmaydilar) kabi hikmatlik so'zlari ila saodat va taraqqiyni yagona sababi bo'laturgon sa'y va amalni butun tobe'larig'a amr aylagan Qur'ondur. *"Va ja'alna-l-layla va-n-nahara ayatayni. Famahhavna ayata-l-layli va ja'alna ayata-n-nahari mubsirotan"* (Kecha va kunduzni ikki mo'jiza qildik. Kecha mo'jizasini yashirdik, kunduz mo'jizasini esa ko'rinadigan qildik), *"Va min kulli-s-samaroti ja'alna fiyha zavjayni isnayni"* (Va har bir (narsa) jonzotni ikkita, erkak va ayol qilib yaratdik) kabi oyatlar ila ulum va fununning kuch bilan kashf etdigi haqiqatlarni mundan 1333-yil muqaddam ilm ahlig'a hadya qilg'on Qur'ondur. *"Va allama Adama-l-asma'a kullaha"* (Odamga barcha narsalarning nomlarini o'rgatdi), *"Va saxxorna lakum ma fi-s-samavati va-l-arzi..."* (Sizlarga osmonlardagi va yerdagi bor narsalarni bo'ysundirib qo'ydik...) kabi mujdalar ila basharning nihoyatsiz iste'dodini ochiq bir suvratda so'ylagan Qur'ondur. *"Va lan yaj'alu-l-lohu li-l-kafirina 'ala-l-mu'minina sabilan"* (*), *"Va lan tanalu-l-birro hatta tunaffiqu mimma yatahabbuna"* kabi bayonlar ila ijtimoiy qonunlarning eng qat'iysini bizlarga bildirgon Qur'ondur. *"Va la yatajabbahu-l-laziyina qotalu fi sabili-l-lahi amvatan"* kabi bashoratlar ila haq va haqiqat yo'linda cholushib jon fido qilganlarni eng yuqori martabalarga

chiqargan va “*Hal yastaviya-l-laziyna ya’lamuna va-l-laziyna la ya’lamun*” (Bilganlar bilan bilmaganlar teng bo’lurlarmi?) kabi qonunlari ila jahl va nodonlikni eng past martabalarig’a indurgan yana shul Qur’ondur.

Aqlni, hikmatni, sa’yni, amalni, davlat va saodatni, ilm va qudratni muncha ehtirom etgan va butun insonlarni bularning tahsilig’a dalolat aylagan bir kitobning ahli edugimizni (matnda: etdugumizni) da’vo etub turdig’imiz holda, uning amaliy va ijtimoiy hukmlarig’a amal qilmak xayolig’a aslo tushmaduk. Jaholat va ojizlik kabi o’lumdan yomon xastaliklarga muhtalo bo’lgan insonlarga hayot ruhini uflamoq, saodat saodat (matnda shunday) fikrini vermek uchun arsh-i uluhiyatdan ingan Qur’onni go’ristonda yotgan bobolarimizning istirohati ruhig’a, to’rt-besh mullaning ta’mini maishatig’a taxsis etduk. Ya’ni tiriklarning saodati uchun lozim bo’lgan bir qonuni muqaddasni o’luklar olamig’a hadya ayladuk. Na buyuk ehson?!..

Shuning uchun bu qadar ruhsizlik, johillik, ojizlik, xushyoqmaslik va badbaxtlik daryolarig’a botduk. Va holo ham botmoqdamiz. Ajabo, insonlik da’vosinda edugimiz holda haqiqiy insonlar kabi harakat qilmoq yodimizg’a hech tushmazmi?! O’z holimizni tushunub badbaxtligimizning sabablarini izlab saodat choralari oxtarmoq bizlarga aslo nasib bo’lmasmi? Muqaddas Qur’onimizg’a haqqila amal aylamak zamoni qiyomatg’a qadar ham kelmazmi?

Buxoro: Abdurauf Fitrat

(*) Bu oyati karima: “Iymong’a yolg’iz iymon ila muqobala aylamak mumkindur” qoida-i ijtimoiyasining fahmimizg’a yaqin bir ifodasidir (Fitratning o’z izohi).

“Oyina”, 1915, № 16

Himmat va saboti bo’lmagan millatning haqqi hayoti yo’qdur

Tushundigim zamon ko’nglim yonar, yig’lamoq istarman, ko’z yoshlarim kelmaydur. Hammamizg’a ma’lumdurki bukun islom dunyosi qo’rqinch bir tezlik bilan halokat chuquriga to’g’ri ketmakdadur. Ovrupo dedigimiz ish va kuch dunyosi bizni har tarafdin ihota qilibdur; ilman, iqtisodan, siyosatdan bizdan ko’klar qadar yuqori chiqibdur. Muhorabayi hozira munosabati

ilan bankalari pul bermagandan keyin sinmagan savdogarimiz qolmadi; tirikligimizg'a keraklik narsalarni hammasini ulardan olganimiz uchun bukun har nimarsani qiymat bahosi bilan olib turamiz. Oramizdan bir g'ayratlik chiqub loaqal gugurdimizni yasab berolmaydi. Ovrupo madrasalarinda quyoshdek katta bir maxluqini jasomati anglashildi. Bizning madrasalarimiz hanuz "Zayd va Amr" da'vosini hal etolmaydi. Ovrupo ulamosi "vahdati iloh" kabi azamatlik masalalarg'a ittifoq qildilar. Bizni olimlarning tahorat haqidagi ixtilof va g'avg'olari holo bitmadi. Ovrupo ruhoniylari o'z dinlarini to Afriqoning quruq cho'llarig'a qadar nashr qildilar. Bizim muqaddas dinimizni o'z avomlarig'a tushundurgan bir olimimiz yetishmadi. Dinimizning sharafigi, payg'ambarimizning kattaligini Ovrupo olimlari qadar bilaturgan bir mullamiz maydong'a chiqmadi. Hech shubha yo'q, shul deganlarimning hammasini ko'z sohibi bo'laturgan har musulmon ko'radur, shubha yo'q, ko'radur. Va agar musulmonlig'imiz muhabbati bor bo'lsa ani ko'ngli ham menim ko'nglim kabi yonar.

Lekin shul dardlarimning davosi va shul mazallatning chorasi yo'qmi? Mana shul surushg'a bukun musulmon dunyosining ko'pchilig'i "yo'q!"dan boshqa bir javob berolmaydur. Ajabo, na uchun? Chunki biz musulmonlar "himmat" degan fazilati insoniyadan mahrummiz. Payg'ambarimizning katta fazilatlaridan biri albatta, "himmat" fazilati edi. Agar hazrat payg'ambarimizning himmati bo'lmasa edi, butun dunyoning jaholat daryosig'a botub turdig'i bir zamonda "*Fasri' bima tu'mar*" (Buyurilgan ishni qilishga shoshiling) amri jalilini tarafi ilohiydan olub yolg'uz o'zi, bila futur bashariyatni qutqarmoq uchun bel bog'lamas edi. Demakki "himmat" yolg'uz fazoyili insoniyadan emas, "kamoloti Muhammadiya"dan ekan; ya'ni bashariyatg'a naf'lik bo'lgan har qanday katta ishg'a yolg'uzgina bo'lsak ham harakat qilmoq biz uchun hazrati Muhammadning sunnatlaridan ekan.

...Hayhot! Palovdan keyin bir parcha non yemak kabi lozim bo'lmagan ishlarni sunnat va bayoni ijro qildig'imiz holda hazrati Muhammadning hayotimizg'a zarur bo'lub turgan sunnatlaridan ko'z yumub turamiz. Himmatsizlikdan daxi kattaroq va umumiyroq bir dardimiz bor: sabotsizlik. Sabotsizlik dardi himmatsizlikdan umumiyroq va zarari uning zararidan ko'broq erur. Filhaqiqat, musulmon dunyosining ba'zi nuqtalaridan ba'zi asrlarda himmatlik erlar zuhur qilgan va katta-katta ishlar ko'rsatganlar; lekin umumiy bir sabotsizlik yuzindan u katta ishlarning hammasi oz bir zamon ichida barham yeb ketgan. Masalan, dedigim kabi olamning jaholat

daryosig'a botub ketdigi vaqtlarda hazrati Muhammad kabi katta bir payg'ambar kelib "haqiqiy vahdoniyat"ga mustanid, ijtimoiy bir din kelturgan ekan; necha yuz yildan keyin "ta'limoti asosiyayi Muhammadiya"ni ul qadar xotirimizdan chiqardiqli.... Horun ar-Rashid va Ma'mun kabi katta xalifalar chiqub dunyolar qadar himmat sarf etub musulmon dunyosini "madrasayi ulum" qilgan; unlarni tuproqga ko'ngandan keyin shul sabotsizlik yuzindan yana jaholat daryosig'a botduk. Bobomiz Amir Temur kabi himmatlik erlar paydo bo'lub necha mamlakatlarni olgan ekan, biz yana shul sabotsizlik yuzindan parishon va zalil bo'lduk.

Shu kunlarda ham islom dunyosining parishonlig'ini ko'rgan ba'zi himmat egalari oramizdan chiqub matbuot ila bir ish qila boshlasalar ham 2-3 oydan keyin yana umumiy sabotsizlik yuzindan boshlaganlari ishni bitirmayurlar. Menim bu so'zim quruq va dalilsiz bir da'vo emas. Shul daqiqada kerak Buxorodan, kerak Turkistonning boshqa shaharlaridan da'vomni isboti uchun necha dalillar kelturmoqqa iqtidorim bor; ammo so'zni uzatmaslik uchun yolg'uz Samarqandda chiqaturgan muhtaram "Oyina" majallasining holini o'quvchilarga arz etarman. Millatimizning parishonlig'ini ko'rub saodati yo'linda cholishmoq uchun bel bog'lagan erlarning biri albatta janoblari dur. Bu zot millatimizning holi xarobini tamosho qilub o'turmakdan hayo etub, necha yuz balo va malomatlarga tan berub "Samarqand" jaridasini tahrir etdi. Turkistonda "xodimi millat" unvonini olgan na qadar maslakdoshlar bo'lsak, hammamiz mamnun bo'lduk, olqish etdukki, idorani har tarafdin kelgan tashakkur va tabrik yog'murlari bosdi! Lekin andakdan keyin tab'imizdagi u eski xastalik, ya'ni sabotsizlik o'zini ko'rsatdi. "Samarqand" gazetasi botdi... "Samarqand" gazetasi botdi, ammo bu daf'a "Oyina" majallasi chiqdi, yana mamnuniyat... Yana tabrik va tashakkur yog'murlari kela boshladi. Ortuq bu daf'a bo'lsun ko'zimizni ochmoq, "Oyina"miz atrofida to'blanmoq va qilgan tabriklarimizning yuzda bir darajasinda unga muovanat etmoq lozim edi; lekin yana bo'lmadi. Bir yildan keyin yana shu kunlarda "Oyina"miz sakaroti mavtdadur, avloddan g'am yegan yo'q! Butun Turkistonda bo'lsa ham u katta Samarqand shahrinda shul keraklik majallani halokatdan qutqaraturgan bir necha himmat egalari yo'qmidur, ajabo?! Qani ul tabrik yog'murlari? Qani ul tashakkur to'fonlari?.... Ori, to'g'ridur, "Oyina" majallasi digar majallalar kabi o'quvchilarini mamnun qilolmadi, maqolalarindan oz istifoda qilindi; lekin bu so'zlarimni da'vomga javob bo'lamazlar. Chunki takomulning tadrijiyligi har kimga ma'lumdur. Agar biz sabotlik

odamlar bo'lsak, "Oyina" dan yuz qaytarmoq yerinda unga muovnat qilurmiz. Maqolalari bizni mamnun qilmasa, sohibig'a yozarmiz, islohini rijo qilarmiz. Xulosa, ushbu majallaning davomi uchun qo'limizdan kelgan qadar cholishirmiz. Hech bir iloj qolmagandan keyin istar esak yuz qaytarurmiz. Takror qilarman, manim so'zim yolg'uz "Oyina" uchun emas; maqsadim, muhtalosi bo'ldigimiz sabotsizlik dardini maydonga qo'ymakdir. Munga bo'lsa "Oyina" dan boshqa dalillarimiz ham bor. To'g'risi, sabotsizlig'i bu darajalarg'a qadar kelgan millat, tirilik haqqig'a aslo molik bo'lolmaz, mundan millatning nobud bo'lmoqdan boshqa bir nasibasi yo'qdur.

Buxoro: Abdurauf Fitrat

"Oyina", 1915, № 7

Buxoro ahvolina doir

Muhtaram "Yeni iqdam" g'azitasiningsaksoninchino'mrusinda "Buxoro millatparastlari" unvonila yozilmish bosh maqolayi kamoli ehtiromla o'qudum.

Muhtaram Shokir Sidqiy afandi, yuzina Buxoro va buxorolilarning ahvolindan voqif bir hakimi ijtimoiy niqobini taqmish-da butun olami islomning inhitotina sabab o'lan jaholat marazini mislani ko'rdigi Buxoroni, kamoli dabdaba ila amaliyoti xossasina keturub marazning manshayi ila yopdig'i taxriboti boshqalarga go'starmak istayur.

Burasi cho'q go'zal, tashakkur edariz. Faqat Shokir afandi alina qalami oldig'i daqiqadan biraqidig'i daqiqaya qadar butun buxorolilarga devonavor hujum etmak, mina-l-bob ila-l-mihrob hissini tahqir va tajhil aylamak, xulosa o'zining iyi bir hakim o'lmadig'ini maydona ko'ymoqdan boshqa bir ish go'ramiyur.

Buxoroda anjaq olti oy iqomat edan va bu olti oy zarfinda-da Buxoro ila haqqi-la bir munosabat paydo edamayan Shokir afandi kabi mutaazzim musofirning Buxoro haqqinda yozilajagi maqolaning bundan boshqa bir shaklda chiqarmayajag'i ... va bo'yla odamlar tarafidan yozilan sathiy va zohiriy maqolalarga ahamiyat daxi viryamiz: faqat bo'yla yalan-yanglish maqolalarning uzoqdagi musulmon qardoshlarning ahvolini bilmaga yangidan bir ishtiyoq va orzu go'staran qafqosiyali qardoshlarimizga fano bir fikr verajagi va unlari olami islomning istiqbolindan mayus edajagi oshkordir.

Ishta men-da zamonning munosib o'lub-o'lmadig'ini nazari e'tibora olmayaraq Shokir afandining maqolasindagi xato nuqtalari go'starmak zimminda "Yeni iqdam" o'qujularini Buxoro ahvolindan

haqqi-la xabardor aylamak istadim.

Rusiya davlatining istilosidan muqaddam Turkistondagi tavoifi mulukning eng quvvatlisi o'lan Buxoro imorati to quruni vustodan e'tiboran shavkati ilmiyasini g'oib edarak olami islomning inhitotina ishtirok va atrofndagi jamoatlari bila ushbu inhitota rahbarlik aylamishdir.

Yuz yillardan beri Buxoro tahti hukumatina voris o'lan amirlari atroflarindagi kuchuk xonliqlara hujum etmak va o'radagi musulmonlarning mol va jonlarina taarruz aylamakdan boshqa bir ish go'ramamishlardir.

Rusiya davlati tarafidan butun Movarounnahr istilo edildikdan so'ngra Buxoro hukumati daxi Rusiya himoyasini qabul aylamish va onjaq doxiliy bir istiqlole molik o'laraq qolmish va bu surati-la eski yo'lsizliqlarining o'ngi olinmishdir. O'z hukumatlarining Turkistondagi kuchuk xonliqlar uzarina choldig'i g'alabalari ko'rub o'zlarini dunyoning yagona hokimi gumon edan buxorolilar Rusiya istilosi-la barobar bir vartayi hayrata dushiyorlar.

Jahongir farz edilen hukumatlarning oni bir suratda suquti unlari jiddan hayron ediyur va qirq-elli yil bo'yla hayrat-la mamzuj bir davrayi sukut kechiriyurlar; digar tarafdin Buxoro hukumati o'z jamoati ila barobar ayni vartayi hayrata dushmakdan boshqa homiy o'lan muzaffar Rusiyaning yangi nizomlari, yangi usuli idora va taklifoti siyosiyasini bir durlu anglamayur va har bir harakati-la o'zining idorayi mamlakatindan tamoman ojiz o'ldig'ini isbot aylayur; binoan alayhi Rusiya ma'muriy siyosiyasini Buxoroning doxiliy ishlarina bila mudoxalaya majbur birqiyur.

Ishta bu surat-la kechan qirq-elli yilliq bir davrayi hayrat va sukutdan so'ngra intiboh davrasi keliyur. Buxoroda intibohi maktab fikriyasi boshliyur. Sho'ylaki: bundan besh-olti yil muqaddam buxoroli bir sohibi hamiyat tarafidan bir adad usuli jadida maktabi ochilub bir yil davom ediyur va so'ngra mutaassib va johil mullalarning ig'volari-la qopaniyur; bu maktabning qopanmasindan hosil o'lan gurulti, ahvolindan aslo xabari o'lmayan Buxoro aholisining nazari diqqatini jalb ediyur, ishi tadqiqa boshlayurlar.

Bu asnoda "Tarjimon" va "Vaqt" g'aztialarina Buxoro maktabining qopanmasi xususinda nashr o'lan silsilai maqoloti o'quyurlar; bunlardan ba'zilari "millat saodatining onjaq ilm va ma'rifat soyasinda mumkin o'lajag'ina" yaqin hosil edub, bu xususda cholishmoq ichun bel bog'liyurlar.

Ishta Shokir afandining hujumina ma'ruz qolan "jadidlar" bunlardir. Shimdi Shokir afandining maqolasini mutolaa edalim:

Shokir afandi maqolasining avvalinda “bunlar umumbuxorolilar orasinda jadid ismi ila mashhur o‘lub...” jumlasini yozdiqdan so‘ngra “zohirlari bo‘yla esa-da botinlari sho‘yladir” yo‘linda bir tashrihi ijtimoiy yurutmak istayur.

Faqat amin o‘lingizki, bu so‘zlarning hepisi quruq ma‘lumotfurushliq va indi yolonlardan iboratdir; chunki yuqorida dedigim kabi Shokir afandi buxorolilarning hech birisi-la hanuz kasbi muorafa edamamishdir. Narda qoldiki, unlarning zohir va botinlarindan xabardor o‘lmish o‘lsun.

Maqolaning digar bir parchasini tahlil edalim: “Bunlarning “Maorif” kutubxonasining panjarasi o‘nginda o‘lan ijtimoiylarini tasodifiy o‘laraq go‘rajak o‘lursangiz, amin o‘lungizki, oqil odam o‘ldig‘ining holda bunlarning haqiqiy fikrlarini va bilmam nalarini eshidarak yo dali, yo devona o‘lursan”. Shokir afandi avvalo “Ma‘rifat” kutubxonasina “Maorif” kutubxonasi ismini verarak Buxorodagi yagona va mashhur bir kutubxonaning ismini bila hanuz o‘granmadigini, ya‘ni Buxoro ahvolindan tamomila bexabar o‘ldig‘ini maydona qo‘yur; soniyan, “o‘lursangiz”, “amin o‘lungiz” kabi jam sig‘alari ila xitob ayladigi odamlara qarshi birdan bira “o‘ldig‘ing holda” va “dali o‘lursanki” kabi mufrad sig‘alari istemol aylamak qaboliq‘inda bo‘linur va bu surat-la o‘zining usuli tahrirdan daxi voqif o‘lmadig‘ini e‘lon ediyur; solisan, o‘zining daxi Buxoro millatparastlari-la hech bir munosabat paydo etmadigini, balki unlarning so‘zlarini uzoqdan eshidub haqlarinda fano bir fikr hosil ayladigini ... iqror edtyur; lekin muharrirning ushbu iqrori daxi yalandir; chunki Buxoro lisonini bilmadigi ichun unlarning uzoqdan eshidilan so‘zlarindan hech bir shayi anglamayajaqdir.

Muharrira quloq veringiz; “kasiru-l-lafz qalilu-l-ma‘na so‘zi Buxoro millatparastlarining sifati haqiqiyalari ...” Ofarin, muharrir afandi! Olami tahrira hadya o‘lmaq uzara odatan yangi, yangi jumlarlar ijod ediyursan! “Kasiru-l-lafz qalilu-l-ma‘na” jumlasini onjaq bir kitobning, bir maqolaning sifati o‘la bilurkan, sen bir necha odamning sifati aylamak istayursan. Muharriri dinglingiz: “Bunlar bir-birlarina tasoduf keldiklari vaqt “izdaruy” deyurlar.” Bu jumladan u qadar mulavvas bir iftirodirki, kamoli nafrat ila sohibning yuzina firlatmaqdan boshqa bir muqobalaya loyiq go‘rulmaz.

Muharrirafandimaqolaningikkinchisutunudabuxorolilarning atolat va ... larindan bahs ediyurlar. Faqat buradagi so‘zlari pek qorishiq va pek mubhamdir; bu ishsizlar, harakatsizlardan kimlari idora etdiklari bir durlu anglashilmayur.

Voqean, Buxoroning eski fikrli odamlari hayota qarshu

loqayd qolmishlar va balki Buxoro millatparastlari orasinda-da ushbu unvoni asb edan qo'rqoqlar bo'liyurlar; lekin yana ushbu millatparastlar orasinda vujudlari-la iftixor o'linajaq zotlar daxi pek cho'q o'lub hatto aksariyati tashkil ediyurlar. Bunlari go'ra bilmak ichun biroz basirat, biro aql va biroz muhokama kofiydir; basirat va muhokamadan mahrum o'lanlara esa "elektrik lompalari-la projektor"dan har foida tasavvur o'linamaz. Zero, "ko'shish befoide ast va ... obruy ko'r". Ma'hud maqolaning yana bir nuqtasina biroz tavaqquf edajagim:

Shokir afandi yalanjilig'imizi tasvir ichun "muovanat talab edanlara o'n sanaya qadar natijasiz o'laraq davom edan ... bir hoy-hoydan boshqa bir javob veramadig'imizi" so'ylayur.

Buxoro millatparastlari Qars falokatzadalarina muovanat etmak xususinda har durlu vasoitdan mahrum o'lqiqlari holda kamoli taholikka ishtirok etdilar va o'z maqelarina go'ra muvaffaqda o'ldilar. Agar Shokir afandiya buni go'ra bilajak qadar basirat yo'q esa "Iqbol" g'azitasining ionalara taxsis ayladigi sutunlarini birisina o'qutsun. O'qutsun-da hech o'lmazsa o'zining naqadar xabarsiz o'ldig'ini anglasun;

Muhtaram Husayn Tal'at afandining tadoviysi ichun balki qofqosiyalilardan daha avval iona vermaga shuru' etdilar. Buning-da jadvalini Shokir afandining rafiqlarindadir. Olub o'qusun. O'qusun-da o'zining naqadar muftari o'ldig'ini go'rsun; muhoraba majruhlari, Petrug'rad jam'iyati va Qars falokatzadalarini manfaatlarina artist "Xontalishskiy" janoblari tarafidan qo'yulan tiyatrulara kamoli samimiyat va fidokorliq ila Shokir afandining go'zi o'nginda ishtirok va muovanat ayladilar. Bunlari dushunsun. Dushunsun-da go'zi o'nginda jarayon edan voqealari go'ramayajak qadar basiratsiz o'ldig'ina imon getsun; ben va benim kabi necha odamlar yolgiz Buxoro ganjlarining tashabbus va muovanatlari-la xoriya chiqub tahsili ilm ayladik. Bunlara diqqat etsun. Diqqat etsun-da yuqoridagi yalanning jasorat ayladigindan to'layi vijdon azobi cheksun.

Ma'hud maqolaning yana iki sutun ishg'ol edan baqiyasi esa Buxoro millatparastlarini tashabbussizlik ila ittihom va unlari tashabbusa va harakata dalolat etmagidan iboratdir.

Buxoro ganjlarini tashabbusa, harakata tashviq etmak agar yo'l ila o'lursa va unlarning holati ruhiyalarina muvofiq dusharsa cho'q iyidir. Va bo'yla harakat edanlara tashakkurlar ila muqobala o'lunajaqdir. Ammo unlari tashabbussizlik ila ittihom etmak qatiyan xatodir.

Voqean, shimdilik Buxoro ganjlarining na bir maktablari

va na bir g'azitalari yo'qdir; lekin besh-olti sana zarfinda mo adad maktablar ochdilar, to'quz bing manat iona iki dona g'azita chiqardilar. Bunlarning hepisi Buxoroyi idora edan quvvatlar tarafidan so'na mahkum edildi. Yana turmayaraq unlarning ixbosina cholishiyurlar. Faqat muvaffaq o'lamiyurlar. Ajabo, nedan? Ishta burasini izoh edalim:

Buxoro millatparastlari o'zlarina muxolif o'lan mutaaddid quvvatlarning tahti tazyiqinda turiyurlar; bu quvvatlarning biri "mullalik quvvati"dir. Buxoroda mullalik quvvati Rusiya musulmonlari orasindagi mullalik quvvati kabi yolg'iz takfir etmak va afkori avomi hayajona geturmakdan iborat dagil; balki bunlar hibs, ... (nafi) va qatl etdirmak va etmak ...larini bila hoizdurlar. Ikinjisi hukumat quvvatidir.

Kamoli taassuf ila so'ylayurizki, qirq-elli yildan beri Rusiya davlatining ziri himoyasinda idora o'linan Buxoro hukumatining hanuz muayyan bir qonuni yo'qdir.

Buradagi jazolar va mukofotlar amala go'ra dagil, hokimlarning kayfiyata go'ra verilir. Rusiyada xilofi qonun harakat etmak-la muttahaam o'linan "Iqdam" g'azitasi qoponiyur. Buxoroda esa hech bir fanolig'i to'qunmayan "mutlaq g'azita chiqarmaq" man' o'liniyur.

Rusiyada falon maktabi falon qabohati ichun bog'layurlar; Buxoroda esa mutlaqo maktab ochmog'i man' ediyurlar.

Ishta Buxoroning saodatini istamayan butun quvvatlar ushbu qonunsizliqdan istifoda ediyurlar. Buxoro ganjlari bu qadar mushkilota rag'man yana mayus o'lmayaraq cholishmaqdadirlar. Binoan alayhi, bunlari tashviqlar, targ'iblar, ofarinlar va tahsinlar ila jo'sh va jurusha getirmek lozimdir. Bilaks, tahqirlar, tajhillar, ittihomlar va iftirolar ila ruhlarini so'ndirmaga aslo haqqimiz yo'qdir.

Buxoroli Abdurauf Fitrat
Yeni iqdam, 1915, №89-90.

Adabiyotlar

Allworth, Edward A. 2000. *The preoccupations of Abdalrauf Fitrat. Bukharan nonconformist: an analysis and list of his writings*. Berlin: Des Arab. Buch, (Anor; 7).

Allworth, Edward. 1990. *The Modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present: A Cultural History*. Stanford University, Hoover Institution Press.

Айний, Садриддин. 1987. *Таърихи инқилоби Бухоро*. Душанбе: Адиб.

- Айний, Садриддин. 1926. *Намунаи адабиёти тожик*. Москва: Чопхонаи нашриёти марказии халқ иттиҳоди жамоҳири шуравии сусиёлисти.
- Biçakci, Salih. 2006. "Homeland and nation on the stage: A review of *watan* concept in Abdalrauf Fitrat and Namik Kemal". *OAKA Cilt*: 1, Sayı: 2: 149-161.
- Болтабоев, Ҳамидулла. 2007. Фитрат ва жадидчилик. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти.
- Ergahin, Seyfettin. 2008. "Fitrat'ın Türkistan için II. Meşrutiyet Mahreclı Tecdid Teklifi Üzerine". *Bilig* 47: 21-44.
- Фитрат. 1929. "Ёпишмаган гажжаклар". Ўртоқ Бойбўлатовга очиқ мактуб. *Қизил Ўзбекистон*, сентябрь 215, 216.
- Фитрат. 1991. Давраи ҳукмронии Амир Олимхон. Ҳозиркунандаи нашр А.Насриддинов. Душанбе: Палатаи давлатии китобҳо.
- Фитрат. 1996. *Чин севиш. Шеърлар, драмалар, мақолалар*. Нашрга тайёрлаганлар Наим Каримов, Эрик Каримов, Шерали Турдиев. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Фитрат, Абдурауф. 2003. *Танланган асарлар. Ж. 3. Драмалар, мақолалар*. Нашрга тайёрловчи Ҳамидулла Болтабоев. Тошкент: Маънавият.
- Раҳимова, Гулноз. 1989. "Мунозара" – "уйғониш даракчиси". *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*, 52.
- Каримов, Эрик. 1990. "Фитрат ижоди ва ҳаёти ҳақида". *Ўзбек тили ва адабиёти* 3: 26-29.
- Кароматиллаҳжаева, Севара. 1996. "Қалбимга мангу муҳрланган... Абдурауф Фитрат ҳақида хотиралар". *Тафаккур* 2: 66-72.
- Khalid, Adeeb. 2005. "Pan-Islamism in practice: the rhetoric of Muslim unity and its uses". In *Late Ottoman Society. The Intellectual Legacy*. Elisabeth Özdalga (ed.), 201-224. London: RoutledgeCurzon.
- Khalid, Adeeb. "Visions of India in Central Asian Modernism: The work of 'Abd ar-Ra'uf Fitrat". 2004. In *Looking at the coloniser: cross-cultural perceptions in Central Asia and the Caucasus, Bengal, and related areas* / Beate Eschment; Hans Harder (Eds.), 253-274. Würzburg: Ergon-Verl.
- Komatsu, Hisao. 1993. 20. *Yüzyıl Başlarında Orta Asya'da Türkcülük ve Devrim Hareketleri*. Ankara.
- Муҳтарам, Ҳожи Неъматуллоҳ. 1975. Тазкирату-ш-шуаро. Душанбе.
- Қосимов, Бегали ва бошқ. 2004. *Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти*. Тошкент: Маънавият.
- Қосимов, Бегали. 1996. *Аллома адиб. Фитрат. Чин севиш. Шеърлар, драмалар, мақолалар*. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
- Қосимов, Бегали. 1994. *Маслакдошлар. Беҳбудий. Ажзий. Фитрат*. Тошкент: Шарқ.
- Sarfraz, Khan. 1996. "Abdal Rauf Fitrat". *Religion, State & Society*, Vol. 24, Nos. 2/3: 139-157.
- Togan, A., Zeki, Velidi. 1942-1947. *Bugünkü türkili Turkistan ve yakın tarihi*.

Cilt I. Istanbul.

URL:<http://www.iranicaonline.org/articles/fetrat-abd-al-rauf-bokari>
01.11.2014.

Худоёр, Иброхим. 2011. “Фитрат Бухоройнинг “Мунозара” асари
структуравий таҳлили”. *Сино* 37-38-39-40.

Ғойибова, Шаҳноза. 1996. *Абдурауф Фитратнинг итимоий-
фалсафий қарашлари*. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини
олиш учун диссертация. Тошкент.

Zaynabidin Abdirashidov

(Tashkent, Uzbekistan)

abdirashidov@navoiy-uni.uz

On Fitrat's Educational and Ethical View

Abstract

Abdurauf Fitrat played an important role in the development of Turkestan Jadidism and with his works made a significant contribution to the dissemination of the ideas of this movement. In addition, he is associated with many works and articles on the topic of religious reform that swept the entire Muslim world at the beginning of the twentieth century. Fitrat's activities in the field of religious reform were formed under the direct ideological influence of well-known figures of that time, Muhammad Abduh, Abdurashid Ibrahim and others. The article briefly analyzes the main points of Fitrat's activities in the 10s of the twentieth century - his activities in Turkey, works written in Istanbul, as well as some facts of his biography. The article also contains Fitrat's religious and educational articles, which are published for the first time.

Key words: *Fitrat, reform, religion, Jadidism, Turkey, “Debate”.*

About the author: *Zaynabidin Abdirashidov* – Doctor of Philosophy in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Recommended citation: Abdirashidov, Zaynabidin. 2020. “On Fitrat's Educational and Ethical View”. *Oltin bitiglar* 3: 117—134.

References

- Allworth, Edward A. 2000. *The preoccupations of Abdalrauf Fitrat. Bukharan nonconformist: an analysis and list of his writings*. Berlin: Des Arab. Buch, (Anor; 7).
- Allworth, Edward. 1990. *The Modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present: A Cultural History*. Stanford University, Hoover Institution Press.
- Ayniy, Sadriddin. 1987. *Ta'rixi inqilobi Buxoro*. Dushanbe: Adib.
- Ayniy, Sadriddin. 1926. *Namunai adabiyoti tojik*. Moskva: Chopxonai nashriyoti markaziyi xalq ittihodi jamohiri shuraviyi susiyolisti.
- Biçakci, Salih. 2006. "Homeland and nation on the stage: A review of *watan* concept in Abdalrauf Fitrat and Namik Kemal". *OAKA Cilt*: 1, Sayı: 2: 149-161.
- Boltaboev, Hamidulla. 2007. *Fitrat va jadidchilik*. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
- Ersahin, Seyfettin. 2008. "Fitrat'in Türkistan için II. Meşrutiyet Mahrecli Tecdid Teklifi Üzerine". *Bilig* 47: 21-44.
- Fitrat. 1929. "Yopishmagan gajjaklar". O'rtoq Boybo'latovga ochiq maktub. *Qizil O'zbekiston*, sentabr 215, 216.
- Fitrat. 1991. Davrai hukmroniyi Amir Olimxon. Hozirkunandai nashr A.Nasriddinov. Dushanbe: Palatayi davlatiyi kitobho.
- Fitrat. 1996. *Chin sevish. She'rlar, dramalar, maqolalar*. Nashrga tayyorlaganlar Naim Karimov, Erik Karimov, Sherali Turdiev. Toshkent: G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Fitrat, Abdurauf. 2003. *Tanlangan asarlar. J. 3. Dramalar, maqolalar*. Nashrga tayyorlovchi Hamidulla Boltaboev. Toshkent: Ma'naviyat.
- Rahimova, Gulnoz. 1989. "Munozara" – "uyg'onish darakchisi". *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, 52.
- Karimov, Erik. 1990. "Fitrat ijodi va hayoti haqida". *O'zbek tili va adabiyoti* 3: 26-29.
- Karomatillaxo'jaeva, Sevara. 1996. "Qalbimga mangu muhrlangan... Abdurauf Fitrat haqida xotiralar". *Tafakkur* 2: 66-72.
- Khalid, Adeeb. 2005. "Pan-Islamism in practice: the rhetoric of Muslim unity and its uses". In *Late Ottoman Society. The Intellectual Legacy*. Elisabeth Özdalga (ed.), 201-224. London: RoutledgeCurzon.
- Khalid, Adeeb. "Visions of India in Central Asian Modernism: The work of 'Abd ar-Ra'uf Fitrat". 2004. In *Looking at the coloniser: cross-cultural perceptions in Central Asia and the Caucasus, Bengal, and related areas* / Beate Eschment; Hans Harder (Eds.), 253-274. Würzburg: Ergon-Verl.
- Komatsu, Hisao. 1993. 20. *Yüzyıl Başlarında Orta Asya'da Türkcülük ve Devrim Hareketleri*. Ankara.
- Muhtaram, Hoji Ne'matulloh. 1975. *Tazkiratu-sh-shuaro*. Dushanbe.
- Qosimov, Begali va boshq. 2004. *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Qosimov, Begali. 1996. *Alloma adib. Fitrat. Chin sevish. She'rlar, dramalar, maqolalar*. Toshkent: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.

- Qosimov, Begali. 1994. *Maslakdoshlar. Behbudiy. Ajziy. Fitrat*. Toshkent: Sharq.
- Sarfraz, Khan. 1996. "Abdal Rauf Fitrat". *Religion, State & Society*, Vol. 24, Nos. 2/3: 139-157.
- Togan, A., Zeki, Velidi. 1942-1947. *Bugünkü türkili Turkistan ve yakin tarihi*. Cilt I. Istanbul.
- URL:<http://www.iranicaonline.org/articles/fetrat-abd-al-rauf-bokari> 01.11.2014.
- Xudoyor, Ibroxim. 2011. "Fitrat Buxoroiyning "Munozara" asari strukturaviy tahlili". *Sino* 37-38-39-40.
- G'oyibova, Shahnoza. 1996. *Abdurauf Fitratning itimoiy-falsafiy qarashlari*. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Toshkent.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta-siga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo’limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo’limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa,

bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*,
Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi
raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:
Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek
matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti.
<http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:
maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti."
Oltin bitiglar 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:
maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. “Milliy qadriyat va globallashuv”. *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini *"The Chicago Manual of Style, 16th Edition"* qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Ushbu son "Oltin bitiglar" tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiklar@gmail.com
Tel.: +99891 166-31-38
Bosishga 00.00 2019-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8
Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi
tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

"Mashhur-Press" bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77, +99894
659 94 62